

TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2023 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2023 Vol. 4

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosari: Nodir Jo'raqo'ziyev

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odiraxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetha Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Muhittin Gümüş

Türkiye Türkçesi ve Özbekçe söz Varlığında Göz Kelimesiyle
Oluşan Deyimler ve Birleşik Kelimeler.....6

Jo'ra Xudoyberdiyev

Birinchi turkologiya qurultoyi va plenumida turkiy tillardagi
singarmonizm muhokamasi.....26

Dilafruz Xudoyqulova

Ingliz va o'zbek tillaridagi farmatsevtika terminlarini kognitiv-
semantik aspektda tadqiq etish.....70

Sanjar Mavlyanov

O'zbek tili diplomatik terminlarining semantik tasnifi.....83

Adabiyotshunoslik

Узоқ Жўрақулов, Мақпал Оразбек

Әдебиеттегі «көлеңке» архетипі (Абай мен Оскар Уайльд
шығармаларындағы «жан» мен «көлеңке» табиғаты).....102

Hasan Bekiroğlu

Nazar Eşankul'un "İstila" Hikâyesi'ndeki Halk Kültürü
Unsurları İncelenmesi.....113

Orzigul Hamroyeva

Fitratning aruz va milliy she'r tizimi xususidagi mulohazalari.....130

Fan. Ta'lim. Metodika

Gulnara Iskandarova

Oliy ta'limda sifat va malakaga asoslangan baholash.....142

CONTENT

Linguistics

Muhittin Gumush

Idioms and Compound Words Formed with the Word Eye in
Turkey Turkish and Uzbek Vocabulary.....6

Jura Khudoyberdiev

Discussion of Synharmonism in Turkic Languages at the First
Turkology Congress.....25

Dilafruz Khudoykulova

The topicality of the research of pharmaceutical terms in English
and Uzbek in cognitive-semantic aspects.....70

Sanjar Mavlyanov

Semantic Classification of Uzbek Diplomatic Terms.....83

Literature

Uzok Jorakulov, Makpal Orazbek

Archetype of "shadow" in literature (The nature of "soul" and
"shadow" in the works of Abai and Oscar Wilde).....102

Hasan Bekiroglu

Investigation Of Folk Culture Features In Nazar Eşankul's
"Investment" Story.....113

Orzigul Hamroeva

Fitrat's comments on Aruz and national poetry system.....130

Science. Education. Methodology

Gulnara Iskandarova

Quality and Skill-based Assessment in Higher Education142

Birinchi turkologiya qurultoyi va plenumida turkiy tillardagi singarmonizm muhokamasi

Jo'ra Xudoyberdiyev¹

Abstrakt

Turkiy tillar rus istilosidan keyin dastlab chor ma'murlarining, keyin bolsheviklar tuzumining qattiq nazoratida bo'ldi. Mazkur tillarning tovush tizimi, alifbosi, imlosi, so'z boyligi, qo'llanishi kabi sohalarini o'zgartirish borasida tizimli ishlar amalga oshirib borildi. Tadqiqotlarda bu tillarning mushtarak xususiyatlariga e'tibor berilmagani holda, bir-biridan ajratib turadigan tomonlari bo'rttirib ko'rsatildi. Maqolada ushbu masalalardan birining ildizini ochish maqsadida 1926-yilda Boku shahrida bo'lib o'tgan Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyida, turkiy tillardagi singarmonizm hodisasi haqidagi bahslar ilk marotaba tahlil qilingan. Bakir Cho'ponzoda, Olimjon Ibrohimov, Shokirjon Rahimiy va Usmonovlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'rganilgan. Natijada Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyida turkiy tillardan singarmonizmni chiqarishga harakat bo'lganligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: *Birinchi turkologiya qurultoyi, singarmonizm, unli tovushlar, Bakir Cho'ponzoda, Olimjon Ibrohimov, Shokirjon Rahimiy, Usmonov.*

Kirish

1926-yilda Bokuda Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyi bo'lib o'tdi [Первый Всесоюзный тюркологический съезд, 1926]. Turkiy xalqlar tarixi, etnografiyasi, adabiy tili, alifbosi va imlosi kabi masalalari muhokama qilingan ushbu qurultoyning maqsadi, vazifalari, unda ko'rilgan masalalar, qabul qilingan qarorlar turlicha nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Sobiq ittifoq hududidagi nashrlarda qurultoy turkiy xalqlar ijtimoiy-siyosiy hayotida ulkan voqea bo'lganligi qayd etib borildi [Багданова 1930; Инонов 1926; Хансуваров 1932; Усмонов 1926; Юсупов 1979; Кононов 1968;

¹Xudoyberdiyev Jo'ra Ochilovich – katta o'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: jxudayberdi@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-5362-0356

Iqtibos uchun: Xudoyberdiyev, J. O. 2023. "Birinchi turkologiya qurultoyi va plenumda turkiy tillardagi singarmonizmning muhokama qilinishi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 26 – 69.

Мусаев 1965; В.С. 1926; Алфавит октября, 1934]. Xorijlik mutaxassislar tadqiqotlarida ushbu anjuman turkiy xalqlar adabiy tili, alifbosi, imlosini bolshevik mafkurasi asosida shakllantirishga qaratilgan bir bosqich ekanligi tarzida baholandi [Arnold J. Toynbee. 1929; Castagne 1926; 1927; Bocon 1966; Henze, Paul 1956; Henze, Paul 1957; Şimşir 1991; 1992]. Yigirmanchi asrning o'ttizinchi va undan keyingi yillarida shunday harakatlar izchillik bilan olib borilganligi ko'plab xorijiy adabiyotlarda aks etdi. Ushbu qurultoydan keyin Boku, Toshkent, Qozon va Olmota shaharlarida o'tkazilgan Yangi turk alifbosi Butunittifoq markaziy qo'mitasining plenumlari o'tkazilgan va ularda qurultoyda qabul qilingan qarorlarning ijrosini ta'minlash masalalari muhokama etib borilgan, tadbirlar belgilangan.

Bizga ma'lum sovet davri, ayrim mustaqillik davri ilmiy adabiyotlari va tadqiqotlarida mazkur anjumanlar materiallari, unda qabul qilingan qarorlar ijobiy baholangan, turkiy xalqlar adabiy tillari, alifbolari va imlolari taraqqiyotida muhim rol o'ynaganligi qayd etilgan.

Anjumanlarda qilingan ma'ruzalar, bahs-munozaralarda bildirilgan fikrlarda turkiy adabiy tillar, alifbolar, imlolar va terminlar qabul qilishdagi mavjud muammolar haqida to'g'ri, xolis qarashlar bilan birga, bu tillarning asrlar davomida shakllangan tub qonuniyatlari, o'ziga xos xususiyatlaridan imkon qadar chetlashtirishga qat'iy harakatlar bo'lganligini ham kuzatish mumkin. Shu ma'noda Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyi, Yangi turk alifbosi Butunittifoq markaziy qo'mitasining plenumlari kun tartibida muhokama etilgan masalalar tub mohiyatini, ildizini ochish uchun 20-30-yillar, hatto chorizm davri ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, hukmron mafkurasining milliy tillar va alifbolarga oid munosabatini o'rganish hamda dalillarni qiyoslab ularning mushtarak va farqli jihatlarni aniqlash, tahlil etish va tegishli xulosa chiqarishga katta ehtiyoj bor.

Chunki Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyi hamda Yangi turk alifbosi Butunittifoq markaziy qo'mitasining plenumlarida muhokama etilgan masalalar, qabul qilingan qarorlar bo'yicha hozirgacha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan, turli anjumanlar o'tkazilgan [Birinci Turkoloji Qurultayin 90 illik yubileyi, 2016; Bocon, 1966; Castagné, 1926; Castagné, 1927; Henze, 1956; Henze, 1957; Şimşir, 1992; Toynbe, 1929; Мусаев, 1965]. Yoki qurultoy va plenumlarda turkiy tillardan singarmonizm hodisasini chiqarish masalasi to'g'risida fikr bildirgan B.Cho'ponzoda ilmiy faoliyati ham

o'rganib kelinmoqda (Bayramov, 2013; Bəkir Çobanzadə – 125, 2018; Əzizov, 2018; Kenan, 2001; Məmmədov, 2018; Müasir türkologiya, 2016).

Lekin ularning aksariyatida turkiy tillardan singarmonizmni chiqarish masalasiga e'tibor qaratilmagan, tadqiq etilmagan. Ushbu ishda qurultoy va plenumda turkiy tillardagi singarmonizmining muhokama etilishi, o'rtaga tashlangan fikrlar birinchi marotaba tahlil qilinmoqda. Shu bois o'sha davr manbalaridan ko'proq dalillar olindi.

Birlashtirmoq uchun bo'lmoq siyosati

I.Stalin bolsheviklar partiyasining XVI s'yezdida qilgan yakunlovchi nutqida Leninning milliy masalaga oid tadbirlarni amalga oshirishda rioya qilinishi kerak bo'lgan "birlashtirmoq uchun bo'lmoq" fikrini keltirgan. Mantiqan olib qaraganda, bunda qarama-qarshilik bordek tuyuladi. Shu bois butun narsani nega "bo'lmoq" kerak, nima uchun bo'linganni yana "birlashtirmoq"qa ehtiyoj bor degan savol tug'ilishi tabiiy. Lenin bu fikrida butun boshli hududlarni parchalab, bo'lib Rossiyaga, parchalangan millatlarni esa rus millatiga qo'shishni nazarda tutgan. Shu bois Stalin "birlashtirmoq uchun bo'lmoq" fikrini marksistik dialektikaning hayotiyiligini bildiradi, milliy masalada bolsheviklar uchun har qanday mustahkam qal'alarni egallash imkonini beradi, deb izohlaydi: "Ленин иногда изображал тезис о национальном самоопределении в виде простой формулы: «разъединение для объединения». Вы только подумайте – разъединение для объединения. Это отдаёт даже парадоксом. А между тем эта «противоречивая» формула отражает ту жизненную правду марксовской диалектики, которая даёт большевикам возможность брать самые неприступные крепости в области национального вопроса" [Сталин 1931, 9-10].

Aslida, bu qarashning paydo bo'lishi Pyotr I ga borib taqaladi. U o'z vorislariga qoldirgan vasiyatnomasida Yevropa va Osiyo davlatlarini parchalab tashlashning tadbirlari, ularni Rossiyaga bo'ysundirishning bosqichlari aniq dalillar bilan bayon qilingan edi [Necip Fazil Kısakürek 1992, 79-84]. Bunga amal qilgan chorizm ma'murlari boshqa sohalar kabi milliy tillar, milliy tillarning alifbosi, imlosini ham imkoni boricha o'zaro yaqin tillardan ajratish, ularga rus alifbosini joriy etish bo'yicha faol ish olib borganlar. Masalan, chorizm vaziri bo'lgan Milyutin "qilich bilan boshlangan ishni rus yozuvi yakunlashi kerak (русские письма должны

закончить то, что начато мечом”), degan qarashni ilgari surgan. Nikolay I maxfiy komissiya tomonidan polyak tili lotin alifbosi o'rniga kiritish uchun ishlab chiqilgan rus alifbosi asosi loyiha ayrim harflari shaklini shaxsan o'zi o'zgartirgan va rus yozuvini boshqa xalqlarga ham tatbiq etish fikrini bildirgan [Левин 1930, 6]. Turkiston general gubernatori Kaufman esa 1876-yilda mahalliy tillarga rus alifbosini o'zgartirmasdan joriy qilish, uning boshqa tillarni birlashtirishdagi muhim ahamiyati haqida maorif vaziri Tolstoyga xat yozgan: "Мое личное мнение в данном случае, — пишет Кауфман, — основанное на серьезном обсуждении этого важного вопроса и имея ввиду главную цель, какую должна иметь транскрипция, (т. е. русский алфавит И. Л.), именно облегчить начало к изучению государственного языка нашего и тем дать средство к объединению различных народностей — заключается в необходимости, чтобы все учебные округа, в которых есть инородцы, приняли ... русскую азбуку в том виде, в котором она изучается в наших школах, без всяких изменений и дополнений диакритическими и другими знаками... Надобности в добавочных буквах и разных диакритических знаках никакой не встречается, ибо русская азбука вполне достаточна для выражения всех известных нам восточных наречий, а увлекаясь тонкостями, дело транскрипции лишь запутывается”.

Kaufmanning ushbu fikrini Orenburg noziri Lavrovskiy ham qo'llab-quvvatlaydi, tatar va qozoq tillari uchun rus alifbosini joriy etish, ularni bir hokimiyat doirasida birlashtirishdagi ahamiyatiga to'xtalib o'tadi: "самое лучшее, вернейшее и простейшее средство заключается в применении к татарскому и киргизскому языкам русской азбуки без всякого изменения и дополнения" что имеет "глубокий смысл и политический в силу объединения народов одним правительственным алфавитом, а через него и языком государственным" [Левин 1930, 6]. Turkiy xalqlarga rus alifbosini joriy etishning tashabbuskorlaridan biri N.Ilminskiy ham alifboni boshqa xalqlarni birlashtirishdagi muhimligiga urg'u bergan: "Русский алфавит представляется средством к удобнейшему усвоению инородцами русского языка и русского образования, а через это к объединению различных инородческих племен, обитающих в России, с господствующим русским народом" [Левин 1930, 7].

Chorizm davrida bunday qarashlar hukmron mafkuraga aylantirilgan, bu yo'nalishda ayrim ishlar bajarilgan bo'lsa-da, keng

ko'lamdagi ishlarni amalga oshirish, aholisi soni ko'p, o'z yozuviga ega bo'lgan xalqlarga rus alifbosini joriy etish imkoni bo'lmagan. Shundan keyin, asosiy e'tibor, yozuvi bo'lmagan xalqlarga qaratilib ularga rus alifbosi kiritilgan. Oltoy [Суразакова, Тыбыкова, Чумакаева 1982], yoqut [Петров 1972, 208-224], chuvash [Петров, 1982, 92-96], cherkes, kabardin, abxaz, qorachoy-bolqor [Хабичев 1982, 97-106], shor [Донидзе 1972, 20-207], xakas [Чанков 1972, 183-188] singari kam sonli aholini xristianlashtirish maqsadida rus alifbosi joriy qilingan.

XX asr boshlarida turkiy tillar uchun mushtarak til yaratish, arab alifbosiga asoslangan yozuvlarni isloh qilish haqida bo'layotgan qizg'in munozaralarni kuzatib borayotgan rus olimlari 20-yillardan boshlab rus yozuvining afzalliklari, imkoniyatlarini targ'ib qiluvchi maqolalar e'lon qila boshlagan. 1924-yildan sharqshunoslik bilan shug'ullanadigan tashkilotlarga sobiq ittifoqdagi Sharq xalqlari yozuvlarini tubdan o'zgartirish to'g'risida ko'rsatma berilgan: "народности без письменные или неустановившейся письменностью, которые в первую очередь, будут обслуживать проектируемое Отделение Союзного Востока Института Востоковедения, охватывают: а) на северном Кавказе в круглых цифрах до 2 милл. Человек яфетидов с 4-мя главными языковыми группами черкесо-абхазской (500 тыс.чел.), чеченской (500 тыс. чел.), дагестанской (650 тыс. чел.) и осетинской (250 тыс.чел.); б) восточно финские языки до 2 ¼ мил. чел., гл. обр., Востока ЕВР. России и Западной Сибири с языками: мордовской (около 1 милл. Чел.), мари (черемисский ок. 450 тыс. чел.), коми (зырянский ок. 300 тыс. чел.) вотский с пермяцким (ок. 500 тыс. чел.), вогульский и остяцкий в Сибири и др.; в) многие тюркские народности с молодой или возникающей письменностью числом до 7,5 милл. чел., в восточной ЕВР. Россию Сибири и Туркестане, в том числе: языки киргизский (ок. 2 милл. чел.), тюркские яз. Туркестана (узбекский и др., ок. 2 ½ милл. чел.), башкирский (ок. 1 ½ милл. чел.), чувашский (ок. 1 милл. чел.), тюркские языки Алтая ("ойроты" и др. ок. 200 тыс. чел.), якутский (ок. 250 тыс. чел.), наконец, кавказский горцы-тюрки (ок. 100 тыс. чел.); г) языки с установившимся религиозным письмом, требующим при современном подходе к вопросам культурного развития масс коренной реформы письменности на основе европейского алфавита, таковы-монголы, всего 0,5 милл. чел. – в том числе языки калмыцкий (до 200 тыс. чел.) и бурятский (около 300 тыс. человек) и все остальные тюрки"

[Яковлев 1924, 459].

Ushbu matndagi “yevropo alifbosi asosida tubdan o‘zgartirish” aslida “rus alifbosi asosida tubdan o‘zgartirish” degan ma’noni anglatadi. Bunga L.Jirkov va N.Yakovlevlarning 1925-yilda “Новый Восток” jurnalida e’lon qilingan maqolalarida ilgari surilgan qarashlar dalil bo’la oladi [Жирков 1925, 223-235; Яковлев 1925, 236-242]. L.Jirkov lotin, rus va arab alifbolarining ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilib, lotin alifbosining bir necha kamchiliklari, harflar sonining kamligi haqida yozadi: “при наличии указанных достоинств у латинского алфавита есть и много недостатков. Основной недостаток – чрезвычайная малочисленность знака” [Жирков 1925, 225]. Shu sababli bunga yangi harflar qo‘shish zarurati tug‘iladi, deydi. Rus yozuvining imkoniyati, ustunligi va kamchiliklari to‘g‘risida esa shunday mulohazalarini bayon qiladi: “Русский алфавит имеет и такие достоинства, которые не присущи латинскому. Главное – в нем больше знаков. Если на его основа создавать алфавит какого –нибудь другого языка, то мы будем иметь больше шансов на то что знаков хватит; во всяком случае, нам придется больше приспособлять готовое, чем изобретать новое... Какие же технической точки зрения недостатки у нашего алфавита. Их немного, но они, конечно есть” [Жирков 1925, 226]. L.Jirkovning ushbu fikrlarida mahalliy xalqlar tillari alifbolarini rus yozuviga o‘tishga da’vat qilishi yaqqol sezilib turgan bo’lsada, mahalliy xalqlar o’sha davrda rus yozuvini mutlaqo qabul qilmasliklari aniq edi. Shu boisdan L.Jirkov lotincha-ruscha harflar asosida alifbo tuzishni tavsiya qiladi: “Если мы возьмем 26 латинских букв и присоединим к ним все те русские буквы, которые имеют форму отличную от латинских – таковых 18 – мы получим огромный алфавит в 44 буквы. Этого количества знаков безусловно хватит для записи любого языка” [Жирков 1925, 226]. N.Yakovlev maqolasida ham L.Jirkov fikrlariga hamohanglik yaqqol sezilib turadi [Яковлев 1925, 236-242].

Rus yozuvining afzalliklari, qulayligi to‘g‘risidagi o‘rtaga tashlangan bunday fikrlar, tizimli targ‘ibotlar esa mahalliy xalqlar ziyolilari, tilshunoslari munosabatlarini bilish maqsadida e’lon qilingan edi. Bu keskin qarshilikka uchragandan keyingina ozarbayjonli ziyolilar tomonidan ilgari surilayotgan lotin yozuviga o‘tish xususidagi harakatlar qo‘llab-quvvatlangan. Bu jarayonda esa qardosh xalqlar tili, alifbosi, imlosini bir-biridan ajratishga, ya’ni “bo’lmak”ka yo’naltirilganini dalillar tasdiqlab turibdi.

Radlov to'garagida turkiy alifbolar loyihalarining muhokama etilishi

1924-yilning birinchi yarmida Rossiya Fanlar akademiyasi Antropologiya va etnografiya muzeyi qoshidagi Radlov to'garagida ikkita, Leningrad universiteti qoshidagi Neofilologik jamiyat lingvistika bo'limining bitta va Radlov to'garagida tuzilgan maxsus komissiyaning uchta yig'ilishida lotin alifbosini turkiy tillarga joriy etish masalasi muhokama etilgan. Ushbu tadbirlarda bo'layotgan qizg'in munozaralar, bahslar, turli alifbo loyihalari tahlil qilingan. Ularni yanada chuqurroq tahlil qilish, o'rganish va tegishli xulosalar chiqarish maqsadida prof. L.V.Sherba, (rais) prof. A.N.Samaylovich (kotib), yoqutshunos E.K.Pekarskiy, prof. S.Y.Malov, Ozarbayjondagi Yangi turk alifbosi komiteti vakili A.Taqizoda, yoqut vakillari P.N.Malign, M.N.Ionovlar tarkibida maxsus komissiy tuzilgan [Новый Восток 1924, 509].

Komissiyaning xulosalari Rossiya Fanlar akademiyasining 1924-yil 23-sentabrdagi X yig'ilishida ko'rib chiqilgan va Fanlar akademiyasining nashrida e'lon qilingan. Ularda bayon qilingan fikrlar rus turkologiyasi, Fanlar akademiyasi mutaxassislarining turkiy alifbolarga bo'lgan yigirmanchi yillardagi munosabatini ifodalaydigan muhim dalil hisoblanadi.

Komissiya ishlab chiqqan alifboda unli tovushlarni ifodalash uchun o'nta, undosh tovushlarni ifodalash uchu 27 ta harf va tutuq belgisi turkiy tillar uchun taklif etilgan. Komissiya tomonidan turkiy tillar vakillari ishlab chiqqan to'rtta loyiha tahlil qilingan. Ularda alifbolardagi harflar sonini qisqartirishga katta e'tibor qaratilgan. Masalan, N.To'raqulovning qozoq tili (o'sha davr rus manbalarida "qozoq" so'zi "qirg'iz" shaklida keltirilgan) alifbo loyifasidagi harflar sonini qisqartirish, xususan yumshoq va qattiq unli tovushlar uchun bittadan, "q" va "k" harflari uchun bitta, "g" va "q" harflari uchun bitta harf olish, x, f, h harflarini qisqartirish tavsiya etilgan, xorijiy tillardan so'zlarning o'zlashtirilishi munosabati bilan singarmonizmning o'zgarishi haqida fikrlar bildirilgan:

“Не возражать против проектируемого Тюракуловым применении латинского алфавита для киргизского языка системы Байтурсунова, по которой из двух рядов гласных звуков: передних (мягких) и задних (твердых) буквами обозначается только один ряд (задних – твердых), для обозначения же передних (мягких) употребляется особый “мягкий знак” впереди соответствующего слова, с учетом явления полного “сингармонизма” как в родных, так и в заимствованных словах.

Высказать однако при этом опасение, что история других турецких языков, подвергшихся большему, чем киргизский язык, наплыву чужих элементов, может предрекать и для киргизского языка в ближайшем такие изменения в области “сингармонизма”, при которых уже нельзя будет обходиться сокращенным количеством букв. С другой стороны явление “сингармонизма” можно было бы использовать в отношении сокращения числа букв не только для гласных, но и для согласных звуков, приняв одну букву для звуков “q” и “k” и одну букву для “g” и “ɣ”, т. е. сократив в общем алфавит еще на 2 буквы (26 в место 28).

Если далее автор указывает, что заимствованные слова подчиняются в киргизском языке “сингармонизму” наравне с природными киргизскими словами, то к этому следует прибавить, что те-же заимствованные слова перерабатываются на киргизский лад и в отношении “консонантизма” (звук “x” заменяется звуком “q”, звук “f” - звуком “p”, звук “h” исчезает), а следовательно буквы: **x, f, h** являются излишними, и алфавит сокращается до 23 знаков, а если еще признать лишней букву **y**, то и до 22” [Худойбердиев 2002(a)].

Bu taklif va tavsiyalar zamirida ham turkiy alifbolarni rus yozuviga yaqinlashtirish ko'zda tutilganligi sezilib turibdi. “q” va “k” harflari uchun bir belgi olishda **k** nazarda tutilganligi, “g” va “ɣ” harflari uchu **g** ni olish rejalashtirilgani aniq edi. Alifbo loyihasidagi qisqartirish mo'ljallangan **q, ɣ, h** harflari bildirgan tovushlar, shuningdek turkiy tillarga xos bo'lgan singarmonizm hodisasi rus tilida yo'q edi.

Radlov to'garagida turkiy alifbolarning muhokama etilishi, uning xulosalari, turkiy tillar uchun alifbo loyihasining tayyorlanishi hozirgacha o'rganilmagan, ilmiy tadqiqot obyekti bo'lmagan.

Stalinning umumiy til yaratish siyosati

Stalin 1925-yilda Sharq xalqlari universiteti tashkil qilinganligining 5 yilligi munosabati bilan mazkur ta'lim muassasasining siyosiy hamda bolshevik kadrlar tayyorlashdagi muhim vazifalari to'g'risida ma'ruza qilib, milliy tillar, millatlarning kelgusida birlashib ketishi masalalariga ham alohida to'xtalib o'tgan. U dastlab “Bir qanchalar sotsializm davrida hamma tillarni tashlab, umumiy kishilar tili tuzish haqida so'zlaydilar (masalan Kautskiy). Man bu hammani o'z ichiga olaturg'an til nazariyasiga ishonmayman. Ko'ruigan turli tajribalar bu nazariyani yoqlamaydirlar, balki

qarshilik ko'rsatadirlar" degan fikrni bildiradi [Сталин 1925, 12-13]. Uning "hammani o'z ichiga olaturg'an til nazariyasiga ishonmayman" deb aytgan fikri "tillarning birlashtirilishiga ishonmayman" degan ma'noni anglatmaydi. Stalin o'z nutqini davom ettirib, bu masaladagi qarashlarini shunday bayon etadi: "... Agar so'z millatlarni yo'qsullar madaniyati bilan birlashtirish ustida ketib turg'on bo'lsa, bu birlashmak, u millatlarning til, turmushlarining usuliga muvofiq ijro bo'la borishig'a ham shubha yo'q.

... Bir necha millatlarning birlashmak harakatida yo'qolib ketmaklariga shubha yo'q. Bunday yo'llar avvalda ham bo'lib kelgan. Bir necha millatlarning birlashmak harakati boshqa millatlarni chiqarib tashlamaydir. Balki buning teskarisicha bir necha yuksalgan millatlarning birlashmak harakati yoki birlashmak harakatining boshlamalari millatlarni umumiy yuksalish harakatlarining natijalaridir" [Сталин 1925, 13].

I.Stalin milliy tillarning birlashtirilishi masalasiga keyingi ma'ruzalari, chiqishlarida ham alohida e'tibor berib kelgan, bu boradagi fikrlari o'zgarib borgan. U "Milliy masala va leninizm. Meshkov, Kovalchuk va boshqa o'rtoqlarga javob" nomli asarida millatlar va milliy tillarning yo'q bo'lib ketishi, umumiy tilning vujudga kelishi va butun jahon tili yaratilishining uch bosqichi haqida ma'lumot beradi. Har bir bosqichning o'ziga xos xususiyati haqida to'xtalib o'tadi. U yozadi:

"Butun dunyo proletariat diktaturasi davrining birinchi bosqichida millatlar va milliy tillar yo'q bo'lib keta boshlaydi, yagona umumiy til paydo bo'la boshlaydi, deb o'ylash xato bo'lar edi. Aksincha, birinchi bosqich ichida milliy zulm batamom yo'q qilinadi, ilgari ezilgan millatlar va milliy tillarning o'sishi va gullashi bosqichi, millatlarning teng huquqliligi barqaror bo'ladigan bosqich, millatlarning bir-biriga ishonmasliklarini yo'q qilish bosqichi, millatlar o'rtasida internatsional aloqalarni yo'lga qo'yish va mustahkamlash bosqichi bo'ladi!

Butun dunyo proletariat diktaturasi davrining faqat ikkinchi bosqichidagina, yagona jahon xo'jaligi, jahon kapitalistik xo'jaligi o'rniga, vujudga kela boshlashi bilan bir qatorda, faqat ana shu davrda umumiy tilga o'xshagan bir narsa vujudga kela boshlaydi, chunki faqat ana shu bosqichda millatlar o'z milliy tillari bilan bir qatorda, millatlar o'rtasida bitta umumiy til, munosabat qilish qulaylashsin uchun bir umumiy til bo'lishi kerakligini sezadilar. Demak, bu bosqichda milliy tillar bilan bir qatorda millatlar o'rtasida umumiy til ham bo'ladi. Ehtimolki,

dastlab hamma millatlar uchun bitta umumiy tilga ega bo'lgan bitta umumiy butun jahon iqtisodiy markazi emas, balki millatlarning ayrim gruppalari uchun millatlarning har bir ayrim gruppasida ayrim umumiy til bo'lgan bir necha zonal iqtisodiy markaz tashkil qilinar va shundan keyingina bu markazlar barcha millatlar uchun bitta umumiy tilga ega bo'lgan bitta umumjahon sotsialistik xo'jalik markazi bo'lib birlashar.

Butun dunyo proletariat diktaturasi davrining undan keyingi bosqichida, butun jahon sotsialistik xo'jalik sistemasi yetarli darajada mustahkamlanib olib, sotsializm xalqlar hayotiga singganda, millatlar umumiy tilning milliy tillardan ko'ra afzalligiga o'z tajribasida ishonch hosil qilganda, milliy farq va milliy tillar yo'q bo'lib keta boshlaydi va hamma uchun bir bo'lgan butun jahon tiliga o'rin bo'shatib beradi [Сталин 1951, 48-50].

Stalin 1950-yilda e'lon qilingan "Tilshunoslikdagi marksizm haqida" nomli asarida ham tillarning birlashishi masalasiga to'xtalib o'tgan [Сталин 1950].

Stalin, dastlab, tillarning birlashishidan yangi til shakllanadi deb qaraydi. U 1930-yil 27-iyunda VKP(b) XVI-s'yezdining oxirgi kuni so'zlagan nutqida "...sotsializm butun dunyo miqyosida g'alaba qozongach va mustahkamlanib urfga aylangach, milliy tillar, albatta, bir umumiy tilga qo'shilib ketsalar kerak. Lekin u til shubhasiz na rus tili, na nemis tili bo'lmasdan, boshqa yangi bir til bo'lajakdir", deydi. "Tilshunoslikdagi marksizm haqida"gi asarida esa oldingi fikrini o'zgartirib, tillarning birlashishidan qandaydir til hosil bo'lmasdan, mazkur tillarning biri saqlanib qoladi degan fikrni bildiradi: "tillarning bir-biridan chatishib ketishidan qandaydir yangi, uchinchi til hosil bo'lmasdan, balki mazkur tillardan biri saqlanib qoladi" [Сталин 1950].

Milliy adabiy tillarni shakllantirish tamoyillari, alifbo, imlo, terminlar masalasida olib borilgan ishlarning barchasi Stalin tomonidan ilgari surilgan umumiy tilni yaratishga yo'naltirilgani bilan xarakterlanadi. Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyi, Butunittifoq markaziy qo'mitasining plenumlarida qilingan ma'ruza va munozaralarida ham bu holat yaqqol bilinib turdi.

Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyi

1926-yilning 26-fevral 5-mart kunlari Boku shahrida Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyi bo'lib o'tdi. Bu sobiq ittifoqqa kirgan hududlarni chegaralashdan keyin bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan eng muhim tadbirlardan biri edi. Unda turkiy

xalqlar tarixi, etnografiyasi, tillari, alifbosi, imlosi, terminlarini shakllantirish kabi masalalar muhokama qilindi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

Boku qurultoyida Ozorbayjon kasaba uyushmalari nomidan gapirgan Peskov anjumanda alifbo masalasi ko'rilayotganligi, baxtli ruslar qoloq turk ukalariga ko'proq e'tibor qaratishlari, bu masalani umumiy til va yozuv bo'lgandagina amalga oshirish mumkinligi haqida gapirib, keng ishchilar ommasi tomonidan anjuman ishtirokchilariga shunday talab qo'yadi: "Есть еще взаимное непонимание между отдельным национальностями. Для того, чтобы этого не было, для того, чтобы с этим покончить раз навсегда, у вас здесь разбирается один из важнейших вопросов, вопрос алфавита. Нам, русским, в свое время более счастливым в получении грамоты, необходимо будет побольше уделить внимания отсталому тюркскому брату. Это мы сумеем сделать только тогда, когда у нас будет общий язык, общие письмена. Я думаю, ни для кого не секрет, что очень трудно учиться нам, русским, и другим национальностям тюркскому языку по старому арабскому алфавиту. Я полагаю, что также не легко учиться и товарищам – тюркам. Поэтому наше сегодняшнее требование, требование широких слоев рабочих, объединяемых профсоюзами, это требование общепонятного языка, требование письмен на новом латинском алфавите, требование грамоты на новом алфавите" [Первый Всесоюзный тюркологический съезд 1926, 215]. Qurultoyda markazdan tayinlangan ko'pchilik ma'ruzachilar ilgari surgan fikrlar zahirida ham shunday qarash ustuvor bo'lib turgan.

Qurultoydagi qizg'in muhokamalar jarayonida turkiy tillarning tadqiqiga bag'ishlangan ayrim ishlarda ziddiyatli fikrlar, xatoliklar, kamchiliklar ham borligi turkiy xalqlar vakillari tomonidan aytib o'tilgan. Buning sababi sifatida turkiy tillarni o'rganayotgan turkologlar turkiy xalqlarning vakili emasligi, shu sababli ular turkiy tillarning barcha nozik, o'ziga xos xususiyatlarini bilmasligi ko'rsatilgan. Sabashkin Radlov va Ilminskiylarning oltoy tili grammatikalarida turkiy tillarga xos umumiy jihatlarga yoritilgani, oltoy tilining xos xususiyatlari ochib berilmagani sababli talabga javob bermasligini bildirgan [Первый Всесоюзный тюркологический съезд 1926, 147]. Umarov turkiy tillarni o'rganish metodikasi haqida fikr bildirganda, bu sohadagi eng katta kamchilik turkiy tillarni o'rganayotgan turkologlarning o'zi turkiy xalqlarning vakili emasligi, ular turkiy tillarning xos xususiyatlarini

bilmasligini qayd etgan [Первый Всесоюзный тюркологический съезд 1926, 148].

O'zbekiston vakili G'ozzi Yunus esa etnografiya bo'yicha qilingan ma'ruzalar muhokamasida qatnashib, turkiy xalqlar haqida juda kam va umumiy ma'lumot berilgani, bu xalqlarning o'ziga xos, farqli jihatlari yoritib berilmaganligini, o'zbeklar etnografiyasi haqida juda qo'pol xatolikka yo'l qo'yilganligini uqtirib o'tgan: "Когда говорят об узбеках, у всех получается какое-то туманное представление. Что они представляют собой? Узбеки – это люди с длинной бородой, большой чалмой и длинными широкими халатами. И толко. И действительно, взглянешь на альбом, где изображены типы узбеков. Что же этот альбом нам говорит? Абсолютно ничего. Например, вместо узбека снят таджик персидского, иранского происхождения; в их чертах совершенно нет тюркского элемента. Такие альбомы, вероятно, составлены человеком, совершенно не знающим состояния Узбекистана" [Первый Всесоюзный тюркологический съезд 1926, 86-87].

G'ozzi Yunus, o'zbek tili bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham g'ayri ilmiy qarashlar borligiga qurultoy qatnashchilari diqqatini qaratgan: "Наши языковеды не знают, какие имеются наречия у узбеков. Например, чагатайское, смешанное узбекское наричие, они называют узбекским. А потом еще выдумали какой то сартский язык и говорят, что это их особый язык, тогда как сарты все говорят на персидском языке. Когда они говорят на узбекском языке, они знают, что они персы. Таджики, сартов определяют без всякого затруднения. Они говорят по-узбекски так же, как я говорю по-русски; сейчас же можно узнать, что я не русский, что они не турки. А некоторые наши ученые писали в своих трудах, что вот мол сарты происходят из иранской расы, они забыли свой язык и приняли тюркский язык, что в Узбекистане имеется сартское наречие. Это конечно неправильно, это – большая ошибка... Ни Москва, ни Ленинград серьезно этим вопросом не занимались. Я просил бы, чтобы Курултай на это обратил внимание" [Первый Всесоюзный тюркологический съезд 1926, 87].

Qurultoyda turkiy tillardagi singarmonizm hodisasining muhokama qilinishi

Qurultoyda qizg'in bahs-munozaraga sabab bo'lgan masalalardan biri turkiy tillardagi singarmonizm hodisasidir.

Mutaxassislarga ma'lumki, singarmonizm turkiy tillarning tovush tizimini birlashtirib turadigan asosiy qonuniyat ekanligi ko'plab turkologlar tomonidan e'tirof etilgan. Imlo masalasida Tatariston vakili Olimjon Ibrohimov turkiy tillardagi barcha so'zlar qattiq yoki yumshoq bo'lishi, shu sababli imlo qoidalarini shakllantirishda barcha qo'shimchalarni shunga rioya qilib tuzish, turkiy tillarga xorijiy tillardan o'zlashadigan so'zlarni, turkiy adabiy tillar uchun olinadigan yangi harflarni o'zaro kelishgan holda qabul qilish, barcha turkiy tillar alifbolaridagi belgilar, harflar bir shaklda bo'lishi kerakligini bildirgan [Первый Всесоюзный тюркологический съезд 1926, 164-165].

Qurultoyda ishtirok etgan o'zbekistonlik Shokirjon Rahimiy barcha turkiy tillarda, jumladan o'zbek tilida ham singarmonizm mavjud ekanligi, o'zbek tilida unli tovushlarni ifodalash uchun harflar soni kamligini ko'rsatib o'tgan: "Сингармонизм в тюркских языках, в частности в узбекском языке, есть; под влиянием проникновения к городским жителям таджикзма этот: сингармонизм нарушается, но в языке кишлакского населения этот сингармонизм есть. Он говорит, что первый недостаток знаков для обозначения гласных звуков насчитывается от 6 до 8 и даже до 13, между тем как съезд Узбекистана исчислил гласных звуков всего 6, а мы видим, что жизни гораздо больше, но для обозначения гласных звуков не хватает букв. Это он причисляет к основному недостаток узбекского алфавита, несмотря на то что вопрос о реформе орфографии тесно связан с вопросом об алфавите, ибо приспособить арабский алфавит будет трудно, и вопрос орфографии нужно связать со вторым вопросом – об алфавите" [Первый Всесоюзный тюркологический съезд 1926, 165-166].

Shuningdek, imlo masalasida Alparov, Hakimov va Cho'ponzodalar ham ishtirok etib turkiy tilda gapirishgan [Первый Всесоюзный тюркологический съезд 1926, 176]. Chop etilgan anjuman materiallarida ularning fikrlari keltirilmagan. Lekin munozarada qatnashganlar Cho'ponzoda va Alparovlarning fikrlariga munosabat bildirib o'tishgan. Ulardan Cho'ponzoda va Alparovlarning bildirgan ayrim fikrlari mazmunini aniqlash mumkin.

Munozarada ishtirok etgan Olimjon Ibrohimov Cho'ponzodaning turkiy tillardagi singarmonizm va agglyutinatsiya haqidagi fikrlari noto'g'ri ekanligi, singarmonizm turkiy tillarga xos xususiyat bo'lib, turkologiyaga oid barcha akademik nashrlarda alohida

nazariya sifatida qayd etilganligini bildirgan: “Еще серьезный вопрос возник с выступлением тов. Чобан-Заде. Из его выступления на мою доля относится два момента. Он отрицает значение сингармонизма и значение основных моментов агглютинации. Я считаю, что это неправильно, особенно по отношению к родственным языкам. Проф. Чобан-Заде хороший филолог и знает древние и тюркские языки. Ему известны все работы и все ученые тюркологи, как арабские, так и русские, особенно Радлов и другие; все эти ученые указывали, что во всех этих наречиях это свойство в определенно было. Во всех академических изданиях это подчеркивается, как особая теория, а в практическом отношении во всех реформированных орфографиях говорится, что в этом отношении турки отстали” [Первый Всесоюзный тюркологический съезд 1926, 178].

Olimjon Ibrohimovning mazkur fikrlaridan ma'lum bo'lmoqdaki, Cho'ponzoda turkiy tillardagi singarmonizm va agglyutinatsiya qonuniyatlari, ularning qo'llanishi haqida fikr bildirgan. Olimjon Ibrohimov esa ularga e'tiroz bildirgan.

Cho'ponzoda ilmiy terminologiya tizimi haqida ma'ruza qilganda ham turkiy tillar tarixida, taraqqiyotida muhim rol o'ynagan singarmonizm va agglyutinatsiya masalasiga yana to'xtalib o'tgan. U turkiy tillarga faqat agglyutinatsiya va singarmonizm nuqtay-i nazaridan qaramaslik zarurligi, mazkur qonuniyatlar arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlar hisobiga o'zgarishga uchraganligi, shu bois turkiy tillar to'liq singarmonizm va agglyutinatsiya qoidaloriga amal qilmasligini aytib o'tgan: “Затем есть база, хотя тов. Зифельдт выступил против этих терминов, слов “духовенство” и т. д. Каким бы путем ни пришли к этому наши языки, но факт, на который я вчера указал в своем выступлении, что нельзя наши языки определять только с точки зрения агглютинация, или с точки зрения сингармонизма, – это касалось бы только части наших языков. Даже, я скажу, такой более чистый язык, как казакский, имеет уже грамодное количество иностранных чужих элементов, как своих родных. У нас сингармонизм или агглютинация, свойственные чисто тюркскому языку, нарушены заимствованиями из арабского, персидского. Наш язык не есть в общей сложности, принимая во внимание это заимствование, язык чисто тюркский, и поэтому он целиком не подчиняется основным правилам законов агглютинации и сингармонизма” [Первый Всесоюзный тюркологический съезд

1926, 191].

Usmonov bunday qarashlarda turkiy tillarga singlarmonizm shart emasligini isbotlash va turkiy tillar uchun to'laqonli alifbo yaratmaslik harakati yotganligini Alparov chiqishidan so'ng anglab etganligini bayon etadi. Hatto, tatar tilidagi hamma so'zlar ham singlarmonizm qoidasiga to'la rioya qilmasligini misollar bilan ko'rsatib beradi: "Противники основной, коренной реформы противопоставляют закон сингармонизма. Я до сих пор не мог понять их цели, зачем понадобилось им выкапывать этот закон, относящийся еще к древнему языку. Теперь, благодаря тов. Алпарову, ясно, в чем дело. Он высказал мысль, за которую я ему благодарен; оказывается, они этим хотят доказать ненужность для тюркского письма какого бы то ни было совершенного алфавита. Но я знаю, что полного сингармонизма даже в татарском языке нет. Возьмите слова "сина", "мина", здесь сингармонизма нет. В татарском языке также много слов, получивших право гражданства, но не подчинившихся закону сингармонизма. Так, например, "исхак", "китаб", "галимджан", "ибрагим", здесь никак нельзя суметь соблюсти этот закон. Также много слов, вошедших в наш язык, благодаря веяниям новой культуры и техники, как слова "кино", "килограмм", "километр", "гидро" [Первый Всесоюзный тюркологический съезд 1926, 175].

Ma'lum bo'lmoqdaki, Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyida tilning boshqa masalalari kabi turkiy tillardagi singlarmonizm hodisasi ham qizg'in muhokama qilingan. Olimjon Ibrohimov, Shokirjon Rahimiy, Alparov, Usmonovlir barcha turkiy tillarda singlarmonizm mavjudligi, Cho'ponzoda turkiy tillardagi so'zlar arab va fors tilidan o'zlashgan so'zlar hisobiga o'zgargani, shuning uchun turkiy tillar to'liq singlarmonizm va agglyutinatsiya qoidalariга amal qilmasligi haqida gapirgan.

Butunittifoq yangi turk alifbosi markaziy qo'mitasining I plenumida turkiy tillardagi singlarmonizmning muhokama qilinishi

Turkiy tillardagi alifbo, imlo muammolarini muhokama qilishga bag'ishlangan keyingi tadbirlarda ham singlarmonizm masalasi qizg'in bahslarga sabab bo'lganligini kuzatish mumkin. 1927-yil 3-7-iyun kunlarida Bokuda o'tkazilgan Butunittifoq yangi turk alifbosi markaziy qo'mitasining I plenumida lotin yozuvi asosidagi turkiy alifbolar loyihalarini unifikatsiya qilish, ya'ni birlashtirish masalasi muhokama qilingan. Bunda ham asosiy e'tibor

turkiy alifbolardagi harflar sonini qisqartirishga qaratilganligi mahalliy olimlar e'tiroziga sabab bo'lgan. Ushbu masala yuzasidan fikr bildirayotgan ayrim olimlarning o'zi turkiy tillarni bilmasligi sababidan xatoliklarga yo'l qo'yayotganligi urg'ulangan. Manatov I plenumi kun tartibidagi masalalar yuzasidan bo'layotgan muhokamalarda faol ishtirok etayotgan Jirkov haqida shunday fikr bildirgan: "Я не могу согласиться целиком и полностью с проф. Жирковым, что он очень мало знаком с тюркскими языками, или вообще не знаком с ними. Он слишком преувеличил значение доклада и проект тов. Тюракулова" [Стенографический отчет 1927, 132].

Olim asosiy ma'ruzachilar bo'lgan N.To'raqulov hamda B.Cho'ponzoda tomonidan bildirilgan fikrlardagi kamchiliklarga to'xtalib o'tgan: "Тов. Тюракулов спутал относительно "с", "ч", "ш". Он говорит, что узбеки читают "кач", казаки читают "каш", а башкиры читают "кас". Хорошо, с этим мы согласились. Но у нас есть еще "ша". Какую же букву нам предлагает тов. Тюракулов? Тут тов. Тюракулов допускает совершенно необдуманную ошибку. Если принять этот знак за "ша", то татары должны принять его за "ша", а мы примем как "с", потому что "ша" у нас тоже есть. Вот почему нельзя согласиться с тов. Тюракуловым по этому вопросу. Доклад тов. Чобанзаде критиковали и, конечно, его можно было критиковать и долго" [Стенографический отчет 1927, 132].

Manatov tavsiya etilayotgan tatar alofbosi loyihasi haqidagi qarashlarini bildirib, uning ko'p joylari ma'qulligi, lekin ayrim harflarni qisqartirish tatar tilining milliy tovush xususiyatlariga putur yetkazishini aniq dalillar asosida ko'rsatgan: "Я рассматривал татарские проекты. Во многом я с ними согласен, но здесь тоже есть нелепые места, которые придется критиковать и исправлять. Напр., они предлагают один знак для "к" и "q", татары тоже не будут отрицать, что они из гласных хотят вывести такой результат, что "к" будем читать или "к" писать. Татары скажут, что есть слово "ПАК", здесь слышно "к", потом есть слово "АПАq", здесь слышно "q"; тов Сейфи напишет "ПАК" с той же буквой ("к") как и "АПАq", тогда я должен читать "АПАК". Тогда все татары, башкиры и казаки будут смеяться над нами, - спросят, куда же мы дели букву "q"?

Может быть, со временем мы этот звук потеряем, но в настоящее время "q" у нас имеется. Здесь твердая гласная и там твердая гласная. Это не выдерживает критики. Также самое

можно сказать относительно “g” и “т - џ”. [Стенографический отчет 1927, 133].

Shu o'rinda Tataristonda alifboni takomillashtirish jarayonlarida bildirilgan ayrim fikrlarga to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Tatar tilida chop etiladigan “Совет мәктәбе” jurnalining 1938-yil 7-sonida M.Fazlullinning “Яңа алфавит турында” nomli maqolasi bosiladi. Ushbu maqola “Кызыл Татаристан” gazetasining 1938-yil 23-avgust sonida qayta chop etiladi. Unda rus alifbosi asosidagi yangi tatar yozuvi loyihasi ham berilgan. Loyihada tatar tili milliy tovushlarini bildiradigan birorta ham harf olinmagan, rus alifbosidagi harflar o'z tartibi bo'yicha tavsiya etilgan. Tatar tili tovushlarini yozuvda aks ettirish uchun harflar olinganda “rus harflariga asoslangan yozuv mashinkalari tizimi buziladi, tatarcha yozuv uchun yangi tizimdagi yozuv mashinkalarini tayyorlashga to'g'ri keladi, ikkinchidan, bosmaxonalarda ham yangi harflar quyilishi, nabor kassalaridagi yashiklar sonining ortishiga olib keladi, uchinchidan, tatarcha yozuv bilan ruscha yozuv orasida ajralish yuzaga keladi” kabi asoslar ko'rsatilgan [Кәримүллин 1997, 14-15]. X.Kurbatov bu loyihani “ona tilini boshqa til qalbiga joylashtirishni ko'zda tutgan” deb baholagan [Курбатов 1967, 102-103]. Boshqa milliy alifbolarni, xususan, o'zbek alifbosini rus yozuviga o'tkazish jarayonlarida ham shu singari qarashlar, takliflar bildirilgan.

80-yillarning oxiri, 90-yillarning boshlarida tatar alifbosini takomillashtirish masalasi qayta kun tartibiga qo'yildi. Qizg'in kechgan bahs-munozaralarda tatar alifbosiga milliy tovushlarni ifodalaydigan harflar kiritish, **ё, е, э, ц, щ, ю, я, ж** singari tatar tili tovushlarini ifodalamaydigan harflarni alifbodan chiqarish masalasi muhokama etildi. Natijada Tatariston ASSR Oliy Soveti Prezidiumining “Tatar alifbosining lotinlashtirilgan alifbodan rus grafikasi asosidagi alifboga ko'chirish to'g'risida”gi Farmonga o'zgartirish kiritilib alifboga “**к**”, “**ғ**”, “**ў**” harflari kiritildi, O.Ibrohimov nomidagi Til, adabiyot va tarix institutiga o'zgartirishlar kiritgan imlo qoidalari asos sifatida qabul qilishi, 1990-yil 1-sentabrdan ta'lim muassasalari va matbuotda amal qilishi belgilandi, Tatariston Ministrlar Sovetiga 1989-yil 1-sentabrga qadar takomillashtirilgan alifbo ham imloni kiritish bo'yicha amaliy choralar ko'rish uchun topshiriqlar berildi [Социалистик Татарстан, 1989].

Bu davrda tatar ziyolilari orasida rus yozuv asosidagi tatar alifbosini lotin yozuviga qaytarish to'g'risidagi qarashlar ilgari surila boshlandi, anjumanlar o'tkazildi, yozuvchilar, tilshunoslar, madaniyat sohasining vakillari Tatariston Respublikasi Prezidenti

M.Sh.Shaymiyevga tatar alifbosini lotin yozuviga qaytarish to'g'risida xat bilan murojaat qildilar ["Шәһри Казан", 1992, 3 декабрь]. Tatar alifbosini lotin yozuviga qaytarish tarafdorlari ko'paydi [Зәкиев 1990; Зәкиев 1992, 11; Хаков 1992, 1; Ардаширов 1992; Миңнуллин 1991, 185-187; Каримуллин 1991; Кәримуллин. 1991, 31-33; Курбатов 1992]. Matbuot sahifalarida lotin alifbosidagi matnlar berila boshlandi. V.Hakovning lotin alifbosini o'rganishga bag'ishlangan qo'llanmasi chop etildi [Xakof 1993, 62]. Tatar alifbosini lotin yozuviga qaytarishga qarshi fikrlar ham bildirildi...

Bu dalillar Manatov tomonidan aytilgan fikrlarning to'la asosli ekanligini tasdiqlab turibdi.

B.Cho'ponzoda ushbu plenumda ham turkiy tillardagi singarmonizm masalasiga to'xtaladi. Dastlab N.To'raqulov tomonidan singarmonizm tamoyili ilgari surilganligi, shu bois turkiy tillar alifbolaridagi harflar sonini, xususan, unli tovushlarni ifodalaydigan 6 ta harfni 3 taga kamaytirish mumkinligi haqida fikr bildirgan. Amalda esa singarmonizm hodisasi mavjud bo'lgan tillar alifbolarida unli tovushlarni ifodalaydigan harflar soni ko'p bo'ladi, ya'ni qattiq va yumshoq unli tovushlar uchun alohida-alohida harflar olinadi. B.Cho'ponzoda va N.To'raqulovlarning asl maqsadlari turkiy tillardan singarmonizmni chiqarish bo'lganligi uchun, muayyan tilda singarmonizm qabul qilinganda unli tovushlarni ifodalaydigan harflar soni alifboda kamayadi degan fikrni ilgari surishadi: "Тов. Туюракулов выдвигает, во первых, принцип сингармонизма. По его мнению, исходя из фактов сингармонизма, мы можем сократить число букв тюркского алфавита. Так, он предлагает сохранить буквы, для обозначения же мягких звуков произношение данного слова. Таким образом, обозначение твердых звуков "о", "ы" и "у" делают излишним обозначение соответствующих мягких звуков. Словом, тов. Туюракулов вместо 6 букв предлагает только 3" [Стенографический отчет 1927, 109].

B.Cho'ponzoda singarmonizm haqidagi fikrlarini davom ettirib, mazkur hodisa mavjud yoki mavjud emasligiga qarab turkiy tillarni ikki guruhga ajratadi. Turkman, qozoq va qirg'iz tillarida arab va fors tillaridan o'tgan leksik qatlamli yozma adabiyot yo'q. Shu sababli bu tillarda singarmonizm bor. Yozma adabiyotlari, o'z shaharlari mavjud bo'lgan, o'zbek, Sharqiy Turkistondagi turk-tatarlar, qirim turk-tatarlari, onado'li turklari, Eron va Kavkaz ozorbayjonlari tilida singarmonizm borligi haqida gapirish mumkin

emasligini, ya'ni yo'qligini aytadi: "Сингармонизм имеет больше значение в диалектах туркменском, киргизском и казакском, словом в диалектах северного Туркестана. Народы, говорящие на этих диалектах, не имели литературы на персидского-арабской основе и не непосредственно общались с другими народами. Если же мы возьмем другие диалекты, имеющие свою литературу, диалекты, на которых говорят народы, общающиеся с другими народами, имевшие свои города, свое городского население, такие народы как узбеки, тюрко-татары восточного Туркестана, крымские тюрко-татары, анатолийские турки, азербайджанцы персидские и кавказские, то у них о сингармонизме невозможно говорить, беря язык в целом" [Стенографический отчет 1927, 109].

V.Cho'ponzoda qozoq, qirg'iz va turkman tillariga yevropa tillaridan so'zlarning o'zlashtirilishi munosabati bilan singarmonizim tabiiy yo'l bilan yo'qola borishini bayon qilgan: "как доказано трудами многих европейских и наших ученых, сингармонизма нарушается присутствием иностранных слов в лексике языка. Чем больше мы будем принимать европейских терминов, тем больше мы будем общаться к европейской культуре. Я полагаю, что это также нарушает сингармонизм, так как арабские слова, исключаемые нами из своего языка, нисколько не отличаются с точки зрения сингармонизма от слов европейских, которые мы, работая в терминологической комиссии, составляя учебники и т. д., принимаем вместо них. Что касается так называемых чистых диалектов, которые я перечислил, я думаю, что они точно также стоят перед исторической необходимостью нарушения сингармонизма. Одно дело сингармонизм в бедной логике неграмотного народа, владеющего языком казакским, киргизским или туркменским, и другое дело, когда сингармонизм туркменского языка был нарушен в литературе Махмутум Кули и рядом других туркменских поэтов и писателей.

Я полагаю, что сингармонизм будет нарушен естественным ходом вещей и в диалектах народов, не имевших своей литературы, когда они воспримут в свой язык европейские слова и научатся как следует произносить и обозначать их" [Стенографический отчет 1927, 109-110].

Olim shu fikrlaridan keyin singarmonizim turkiy tillarning umumiy qonuniyati emas degan qat'iy xulosani beradi: "Сингармонизм не общее тюрко-татарское явление" [Стено-

графический отчет 1927, 110].

Cho'ponzoda tomonidan ilgari surilgan bu fikrlarni Yakovlev [Стенографический отчет 1927, 135-138] va boshqa markaz olimlari qo'llab-quvvatlasa, Manatov, Umar Aliyevlar Cho'ponzoda bildirgan fikrlarga qarshi turadilar. Umar Aliyev Cho'ponzodaning tilga chet tillardan so'z kirishi hisobiga boyiydi va singarmonizm yo'qoladi, degan qarashini ma'qullamasligini aytadi: "Я согласен с тов. Тюракуловым в том смысле, что иностранные слова следует подчинять своему наречию и не согласен с тов. Чобан-Заде, что с обогащением языка в него входит много иностранных слов и сингармонизм теряется. Я с этим не согласен" [Стенографический отчет 1927, 140].

Cho'ponzoda ushbu qurultoy natijalari haqida yozganda singarmonizm hodisasi haqidagi munozaralarga to'xtalib, O'rta Osiyo respublikalari: Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'iziya va Qozog'iston vakillari I plenumda alifboni singarmonizm asosida shakllantirish haqida fikr bildirganliklari, Turkmaniston va O'zbekistonliklar II plenumgacha o'z fikrlaridan qaytib, birlashgan alifboni qabul qilish tarafiga o'tganliklarini qayd etadi. Boshqa respublikalarni ham singarmonizmsiz alifbo va imloni qabul qilishga da'vat qiladi. Singarmonizmi qabul qilganda qator murakkabliklar, chalkashliklar kelib chiqishini urg'ulab o'tadi [Чобан-Заде 1928, 21-24].

"Применение сингармонизма с различных точек зрения представляется неудобным и недопустимым.

Если смотреть с педагогической точки зрения, то применение принципа сингармонизма к алфавиту, поставит преподавателя в крайне затруднительное положение, потому что 8-9 летним ребятам объяснить такое сложное языковое явление как сингармонизм, представляется почти невозможным, а без такого объяснение обосновать алфавит и научить детей применению знака смягчения является неразрешимой задачей".

"Применение сингармонизма, игнорирующего перспективы развития данного языка вводит элемент искусственности в тесном общении с языками соседних народов. Путем подобного общения в языках появляется достаточное количество заимствований. Казакский язык после Октябрьской Революции стал на путь быстрого развития в смысле проникновения в его состав солидного количества иностранных слов.

Количество этих заимствований пока настолько не велико, что многим казакским работникам представляется

возможным подчинить иностранные слова законам сингармонизма, в результате чего иностранные слова и термины беспощадно извращаются. Благодаря этому, один и тот же иностранный термин казакский ученик принужден изучать в различных формах.

Кроме того извращенная форма иностранного слова всегда препятствует усвоению правильной, оригинальной формы слова, из-за существования извращенных форм **“kemitet”** или **“kemiti”** и **“kәpәresiye”** или что нибудь в роде этого. Правильные формы этих слов: **“комитет”**, **“кооператция”** почти всегда останутся недоступным произношению казака и, таким образом, усвоение какого-нибудь иностранного языка, в том числе и русского будет почти невозможным. Одним словом, подобное искусственное извращение иностранных слов ни в лингвистическом, ни в педагогическом и общекультурном отношении ни к чему хорошему не приведет” [Чобан-Заде 1928, 22].

Cho'ponzoda 1928-yilda o'zbek tilida e'lon qilgan maqolasida singarmonizm XI asrgacha turkiy tillarning asosiy xususiyati, bu xalqlar janubga va g'arbga siljigandan keyin boshqa tillarning ta'sirida singarmonizm buzila boshladi, singarmonizmning qo'llanishi shaharlari rivojlanmagan va islom ta'siriga berilgan yozma adabiyoti bo'lmagan xalqlarda saqlanib qolganligini bayon etib, turkiy tillar uchun singarmonizmni qabul qilmaslik zarur, degan qat'iy fikrni bildirgan: “Singarmonizm 11 nchi asrgacha turk xalqlarining umumiy xususiyati edi. Bu xalqlar janubga va g'arbga tarqalib ketgandan so'ng, turk-tatarlarning ko'pining tili, somiy va oriy xalqlarning tili bilan aralashdi. Buning natijasida bu tillarga chet unsurlar ko'p miqdorda kirib, singarmonizm qonuni buzildi.

Singarmonizmning qo'llanishi faqat, shaharlari sust rivojlangan va islom ta'siriga berilgan yozma adabiyoti bo'lmagan xalqlarda bir daraja saqlanib qolgan. Shunday qilib, turk xalqlarining birinchi guruhi uchun alifbeda singarmonizmning qo'llanishi mutlaqo mumkin emas, ikkinchi guruh uchun bo'lsa pedagogiya va lisoniyat nuqta-i nazaridan muvofiq emas, ham zarar. Chunki buning oqibatida belgilar kamayib, mazkur shevalardagi tipovoy ovozlari yo'qoladi. Bu ovozlarning belgisini alifbeda topolmagan o'quvchi yoki o'qituvchi, mazkur so'zni o'qigan bilan yaxshi tushunolmaydi. Shu sababdan qozoqlarning alifbega singarmonizmni qabul qilmaymiz, deyishini tabrik qilish kerak [Чўпонзода 1928].

Butunittifoq yangi turk alifbosi markaziy qo'mitasining I

plenumida turkiy xalqlar alifbolarini unifikatsiya qilish masalasi ham muho-kama etilib, uning zamirida ham alifbolardagi harflar sonini kamaytirish, yagona tilni, hatto, xalqaro miqyosida tilni yaratish maqsadi yotgan edi. Bu davr manbalarida ham qayd etilgan: “Рассматривая проблема единого унифицированного алфавита как част вопросов культурной реконструкции СССР, мы должны в то же время при ее разрешении исходить не только из круга наличных уже в границах Советского Союза народов, языков, алфавитов, а имеет в виду возможность полного охвата в дальнейшем народов, языков, алфавитом всего мира” [Дмитриев (Кельд) 1932, 90]. “Унификация алфавитов, создавая предпосылки для унификациям языков, является одним из средств образования будущего единого международного языка” [Тезисы методологического сектора НИЯЗ. 1932: 92]. Yangi alifbo Butunittifoq markaziy qo‘mitasida unifikatsiya bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarga Alaverdov, Yakovlev va Litkinlar mas’ul etib tayinlangan [Алавердов 1932, 103].

B. Grande alifbolarni unifikatsiya qilish yuzasidan ayrim qarashlarni, xususan, U. Aliyev [Алиев 1932, 6-14] va A.M.Suxotin [Сухотин 1932, 95-103] fikrlarini tanqid qilgan [Гранде 1932, 160-169]. Samoylovichning mahalliy tillarni hind-yevropa tillariga moslashtirishga qaratilgan fikrlariga qo‘shilmasligini bildirgan [Гранде 1932, 160-161].

Mustamlakachilik mafkurasiga, ya’ni “birlashtirmoq uchun bo‘lmoq” siyosatiga asoslangan bu qarashni ham o‘sha davrda to‘laligicha amalga oshirish imkoni bo‘lmagan. Turkiy tillardan singarmonizm hodisasini chiqarishga qilingan harakatlar natijasiz yakunlangan, turkiy xalqlar vakillari tomonidan qarshilikka uchragan. Barcha turkiy tillarning alifbolari [Вопросы совершенствования алфавитов тюркских языков СССР, 1972], imlolari [Опыт совершенствования алфавитов и орфографий языков народов СССР, 1982] singarmonizmga moslab tuzildi. Faqat o‘zbek adabiy tilidagina bu hodisa chiqarildi [Hudoyberdiyev 1998; Hudayberdiyev 2022; Xudoyberdiyev 2022a; Xudoyberdiyev 2023].

O‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi

Cho‘ponzoda singarmonizmning turkiy tillardan yo‘qola borganligi borasidagi fikrlarini o‘zbek matbuoti sahifalarida ham izchillik bilan davom ettirgan.

O‘zbek adabiy tili uchun singarmonizmsiz shevalarni

asos qilib olish zarurligi haqidagi fikrni O'zbekistonda, asosan, Y.Polivanov ilgari surgan va 30-yillargacha o'z qarashlarini asoslashga harakat qilgan [Поливанов, 1922, 17-19; 1924, 158-159; 1926; 1927, 395-400; 1928; 1929, 92-96; 1933]. Mahalliy ziyolilar esa uning qarashlari ilmiy asosga ega emasligini bildirdilar, o'zbek tilida ham boshqa turkiy tillardagi kabi singlarmonizm hodisasi mavjudligini bayon etdilar [Xudoyberdiyev, 2022a, 38-63]. K.Yudaxin Y.Polivanov fikrlari to'g'riligini asoslashga harakat qilgan [Юдахин 1929, 62-68.; Юдахин 1928, 48-50].

1929-yilning may oyida Samarqandda bo'lib o'tgan til-imlo anjumanida o'zbek adabiy tilining imlosi to'g'risida ma'ruza qilgan Qayyum Ramazon [Til-imlo 1932, 91-103] imlo qoidalarini tuzishda turk so'zlarida singlarmonizm qonuni to'la tatbiq etilishi haqida gapirib o'tgan [Til-imlo 1932, 94-95]. Uni ko'chilik qo'llab-quvvatlagan [Xudoyberdiyev, 2022, 58-60].

Ushbu qurultoyda Cho'ponzoda esa barcha jumhuriyatlar singlarmonizmli alifbodan voz kechganligi, O'zbekistonda adabiy til uchun singlarmonizmni asos qilib olishning hech keragi yo'qligi, lotinlashtirishning asoslaridan biri turk-tatar va boshqa Sharq xalqlarining yozuvlarini yaqinlashtirish ekanini aytib o'tadi: "So'ng o'laroq singlarmunizm haqida bir qancha so'z so'ylamakchi bo'laman. Konferensiyadagi chiqishlar o'zbek lahja yoxud shevalarining asosiy e'tibori bilan singlarmunizmli bo'lg'anini ko'rsatdi. Buning uchun cho'zgilarni ozaytirmoq masalasini bu konferensiyadan so'ngra qat'iy suratda o'rtadan ko'tarmak lozim keladir. Singarmunizmli alifbe tajribasi ikki yil muddaticha Qazaqistan, Qirg'zistan kabi jumhuriyatlarda yayildi. Bu tajribalardan chiqqan natijalar manfiy bo'lg'ani uchun ortiq 1 nchi plenumda butun jumhuriyatlar singlarmunizmli alifbedan voz kechdilar. Endi yangidan O'zbekistonda bu tajribani takror etmakning menimcha hech keragi yo'q. Ikkinchi tomondan lotinlashtirish ideyasining asoslaridan birisi turk-tatar va bashqa Sharq xalqlarining yozuv madaniyatlarini yaqinlashtirmoq edi" [Til-imlo 1932, 15].

Aslida I plenumda turkiy xalqlar vakillari tilida singlarmonizmning mavjudligi, undan to'liq foydalanish to'g'risida fikr bildirib, Co'ponzoda qarashlariga e'tiroz bildirganlar.

1932-yilda Butunittifoq Yangi alifbo Markaziy qo'mitasida joylarda imlo qoidalari ishlab chiqish uchun mas'ullar belgilangan. O'zbek tili imlo qoidalarini ishlab chiqishga Jirkov, Hoshimov va Bogdanova tayinlangan. Yangi o'zbek adabiy tili va imlo qoidalari bo'yicha ma'ruza tayyorlash Jirkov va Hoshimovga topshirilgan

[Алавердов 1933, 106]. Yuqorida Manatovning Jirkov haqidagi “что он очень мало знаком с тюркскими языками, или вообще не знаком с ними” fikrlarini keltirgan edik. Bundan tashqari, u turkiy alifbolarni lotin yozuviga o‘tkazish tadbirlarining barchasida faol ishtirok etib, mahalliy xalqlar alifbolarini ruslashtirish tarafdori bo‘lgan.

1933-yil 7-yanvarda Butunrossiya Markaziy Ijroiya qo‘mitasi huzuridagi Ilmiy kengashda o‘zbek adabiy tili va uning imlosi haqidagi Otajon Hoshimning ma‘ruzasi tinglangan. Ma‘ruza “Yangi o‘zbek adabiy tili va uning imlosining ba‘zi masalalari” deb nomlangan. Ma‘ruza chig‘atoy adabiy tilining XIV asrdan boshlanganligi, u tilga ijod etgan adiblar, ularning faoliyatiga oid ma‘lumotlarni anglatish bilan boshlangan: “В эту эпоху образовалось феодальное государство Тимура и Тимуридов. В эту эпоху усилилось господство помещиков-феодалов, племенной феодальной чагатайской аристократии; ее идеология пропитала, разумеется, и литературы. Чагатайская литература возникла во дворцах Тимура и Тимуридов и достигла наивысшего развития с появлением произведений Атаи, Байкара, Лютфи, Наваи, Бабура и др. Многие из этих писателей были сами ханами, визирями и крупными феодалами. Все их произведения написаны на литературном чагатайском языке” [Хашимов 1933, 37]. Albatta, 30-yillarning boshlarida “chig‘atoy tili”, “chig‘atoy adabiyoti”, “chig‘atoy gurungi”, “burjuaziya vakili”, “Temur va Temuriylar” haqidagi fikrlar, asosan, o‘sha davrni, jarayonlarini, madaniy muhitini qoralash maqsadida ishlatilgan.

Ma‘ruzada Alisher Navoiy faoliyati ham tanqidiy ruhda talqin qilingan. “Muhokamatul lug‘atayn” asarida ilgari surilgan fikrlar chig‘atoy aslzodalarining o‘z tillarini yaratish yo‘lidagi harakat sifatida baholangan. Alisher Navoiyning Temuriylardan Husayn Boyqaroning vaziri va yaqin do‘sti ekanligi, panturkistlar Navoiyni o‘z bobolari sifatida qarashlari, Navoiy siymosida chig‘atoy adabiy tili jonli tilga yaqinlashgani aytib o‘tiladi: “Отсюда ясно, почему националисты-пантюркисты в части литературного языка до и после Октября выпячивали значение Наваи, объявляя его своим “дедушкой”, борцом за тюркский язык. Националисты-пантюркисты доходили до утверждений, что Наваи, и его лице – чагатайский литературный язык, приближался к живым диалектам” [Хашимов 1933, 37].

Shundan so‘ng, chorizmning bosqinchilik siyosati va milliy tillarni ruslashtirish borasida olib borgan ishlari tanqid qilinadi

[Хашимов 1933, 38]. Jadidlar, ularning turkiy tillar uchun yagona tilni yaratish xususidagi faoliyati, "Chig'atoy gurungi"ning o'zbek adabiy tilini rivojlantirish yo'lidagi qarashlari qoralangan [Хашимов 1933, 38-39].

Otajon Hoshim ushbu ma'lumotlardan keyin oktyabr inqilobi bergan ulkan imkoniyatlar, yagona tilni yaratish fikrlari ilgari surilgan I.Stalinning "Sharq xalqlari dorilfununining siyosiy vazifalari", VKP(b)ning XVI s'yezdida qilgan "Milliy masaladagi qingg'ayishlar bilan kurashuv to'g'risida"gi ma'ruzlarining muhim ahamiyatiga to'xtalgan. O'zbek tilining yangi davrda o'sib, rivojlanib borayotganligi, lotinlashtirish yangi adabiy tillarni rivojlantirish yo'lidagi bir bosqich ekanligini aytib o'tgan [Хашимов 1933, 40-41].

Olim shundan keyin singarmonizm va unli tovushlarni ifodalaydigan harflar sonini to'qqiztadan beshtaga qisqartirish haqidagi qarashlarini bayon etgan:

"Последнее связано с вопросом о сингармонизме. В большинстве говоров, городских и кишлачных на данном этапе развития языка сингармонизм все больше ослабляется, нарушается. Это происходит, главным образом, в связи с развитием социалистического хозяйства и культурной революции Узбекистане, с развитием фабрик, заводов, ростом пролетариатавпитывающего крестьян разлитых говоров, при усилении связи между городом и деревней и между различными районами, с созданием совхозов, колхозов, куда входят представители различных языков, и т. д.

В результате всего этого получается скрещивание различных городских, кишлачных диалектов а масштабах, каких прежде не видел Узбекистан. До Октября результатам этого скрещивания являлась усиленная тенденция выравнивания жвых говоров как городских, так и кишлачных. Эта тенденция именно и приводит к все большему ослаблению сингармонизма. Такова основная линия развития жвых узбекских говоров.

При составлении орфографии необходимо учитывать этот основной закон уменьшения роли сингармонизмов, который можно видеть и наблюдать в языке.

Каким образом мы должны развивать орфографию узбекского языка, каким образом должны составить ее, чтобы ускорить этот процесс, чтобы создать базу для единой орфографии? При разрешении этого вопроса мы должны учитывать уничтожение сингармонизмов на данном этапе

развития узбекского языка. Поэтому мы стоим на той точке зрения, что количество гласных можно сократить до пяти (**а, э, ь, і, о, ө, и, у, е = а, о, и, і, э**). Сокращение гласных в узбекском алфавите поможет решить этот основной, кардинальный вопрос для трудящихся масс Узбекистана, перед которыми стоит задача бкстрейшего поднятия своего культурного уровня. Этот вопрос для нас является важнейшим вопросом культурной революции” [Хашимов 1933, 41].

Qisqa bir muddatdan keyin e’lon qilingan Qayum Ramazonning “O’zbek tilining birlashgan imlosi” loyihasida ham unililar soni 9 tadan 5 taga qisqartirilgan, singarmonizm o’z vazifasini tilning boshqa sohalariga o’tkaza boshlagani, shu sababli bundan keyin singarmonizm muhim rol o’ynamasligi qayd etilgan [Памазон 1933]. 30-yillarning boshlaridan siyosiy, mafkuraviy bosimning kuchayganligiga qaramasdan o’zbek alifbosidagi unililar sonining qisqartirishi, adabiy tildan singarmonizmning chiqarilishi ilmiy asoslanmaganligini bildirgan olimlar ham bo’lgan. Masalan, Tursun Ibrohimov o’zbek tilining birlashgan imlosi loyihasida unli tovushlar sonining qisqartirilishidagi ilmiy asoslar ko’rsatilmagani, juft unilarning bir qancha shevalarda mavjudligi uchun ularning sonini qisqartirib bo’lmasligi, singarmonizmdan ham foydalanish kerakligi haqida fikr bildirgan [Иброҳимов 1933]. Singarmonizm, unililar to’g’risidagi bahs-munozaralarga 1934-yil 7-yanvarda Toshkentda bo’lgan Til-imlo konferensiyasi yakun yasagan. Anjumanda yangi imlo qoidalari to’g’risida yana Otajon Hoshim ma’ruzasi tinglangan. Muzokaralarda Shokirjon Rahimiy, Faxri Kamol, Sobirjon Ibrohim, Avloniy, G’ozi Olim va boshqalar qatnashgan. Konferensiyada tasdiqlangan yangi imlo qoidalarida unililar 6 ta qilib belgilangan, singarmonizm yangi sharoitda yo’qolib borayotganligi alohida ta’kidlandi. O’zbekiston Markaziy Ijroiya Komiteti prezidiumining 1934-yil 13-mart qarori bilan tasdiqlangan imlo qoidalaridan keyin o’zbek tilining yozuv tizimida singarmonizm aks ettirilmagan, 9 ta unli tovushdan 3 tasi qisqartirilib 6 ta qilib belgilangan va keyin yaratilgan o’quv adabiyotlari, tadqiqotlar, maqolalarda bu hodisalar o’zbek adabiy tilining katta yutug’i, o’ziga xos xususiyati sifatida baholanib kelingan.

Rus alifbosini lotinlashtirish masalasining kun tartibiga qo’yilishi va uning asosiy maqsadi

Butunittifoq yangi turk alifbosi markaziy qo’mitasining I va undan keyingi plenumlarida turkiy alifbolarni unifikatsiya qilish, turkiy tillardan singarmonizumni chiqarish haqidagi takliflar tanqid

qilinganidan keyin boshqa bir yo'l tutilganini kuzatish mumkin. Leningrad shahrida chop etiladigan "Красная Газета"ning 1930-yil 6-7-yanvar sonlarida A.Lunacharskiyning "Рус yozuvini lotinlashtirish" ("Латинизация русской письменности") nomli maqolasi chiqadi. Unda lotin yozuvi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, uning muhimligi haqida fikr bildirilgan, rus alifbosi esa G'arb va Sharqdan ajralib qolganligi urg'ulangan. RSFSR Maorif xalq komissarligi Boshboshqarmasida tuzilgan katta komissiya rus imlosini tartibga keltirish, punktuatsiyani aniqlashtirish bo'yicha, shuningdek, professorlar Jirkov, Korinskiy, Shelkunov va Yakovlevlardan iborat maxsus komissiya lotin alifbosi asosidagi rus yozuvi loyahasini tayyorlash, uning tamoyillarini ishlab chiqish, loyihalarni tayyorlash bo'yicha ish olib borayotgani haqida ma'lumot berilgan.

A.Lunacharskiyning ushbu maqolasi va rus yozuvini lotinlashtirishga oid boshqa materiallar bilan birga Yangi turk alifbosi markaziy qo'mitasining nashri bo'lgan "Культура и письменность Востока"ning VI kitobida qayta bosilgan [Луначарский 1930, 20-26].

Lotin alifbosi asosidagi rus yozuvini joriy qilish masalasi-ning bu shaklda kun tartibiga qo'yilishi ayrim savollarni tug'diradi.

Birinchidan, davrning eng muhim ijtimoiy, siyosiy va madaniy masalalari bilan bog'liq har qanday masalalar dastlab markazda, ya'ni Moskvada chop etilgan gazeta, jurnal va boshqa nashrlarda e'lon qilingan. Nega lotin alifbosi asosidagi rus yozuvini joriy qilish haqidagi maqola Leningrad shahar bolsheviklar partiyasi va Leningrad ishchi, dehqon va qizil armiya deputatlari kengashi organi bo'lgan "Красная Газета"da e'lon qilingan?

Ikkinchidan, XX asr boshlarida Ozarbayjon, Tatariston yoki O'zbekistonda til masalalari, xususan, arab alifbosini isloh qilish, lotin alifbosiga o'tish jarayonlari katta bahs-munozaraga aylangani, har bir tovush uchun olinadigan harflar, harflarning soni, shakli davr matbuotida, turli anjumanlarda muhosasiz tortishuvlar bo'lgani ma'lum. Bu munozaralarda davrning eng yetakchi rus olimlari juda faol ishtirok etib, ular mahalliy olimlar, mutaxassislar va ziyolilar qarashlarini o'zgartirishga qat'iy harakat qilishganini ham davr manbalarida aks etgan.

Rus yozuvini lotin alifbosi asosida o'zgartirish haqidagi masala matbuotda e'lon qilinganda esa rus tilshunoslari, ziyolilari deyarli e'tibor bermagan. Rossiyada chop etilgan gazeta va jurnallarda munosabat bildirilmagan, anjumanlar o'tkazilmagan. Nega shunday?

Uchinchidan, A.Lunacharskiyning maqolasi nega Yangi Turk alifbosi markaziy qo‘mitasining nashri bo‘lgan “Культура и письменность Востока”da qayta chop etilgan?

Ushbu savollarga “Культура и письменность Востока”ning VI kitobidagi lotin alifbosi asosidagi rus yozuvini joriy qilishga oid manbalarni [Луначарский, 20-26; Яковлев, 27-43; 208-219; Яковлева, 209-211; Каринский, 211-213; Протокол заключительного заседания подкомиссии по латинизации русского алфавита при Главнауке НКП РСФСР от 14 января 1930 года, 213-219], shuningdek turkiy xalqlar alifbolarini lotinga o‘tkazish bilan bog‘liq materiallarni qiyoslagan holda aniqlik kiritish, uning asl maqsadini bilish mumkin.

RSFSR Maorif xalq komissarligi ilmiy boshqarmasi tashabbusu bilan rus alifbosini lotin yozuviga o‘tkazish masalasi bo‘yicha komissiya tuzilgan. Uning tarkibi bosmaxona ishlari bo‘yicha mutaxassis prof. M.I.Shelkunov, V.V.Nikolayev, M.V.Gorshkov; rus tili ta‘limi mutaxassislari prof. A.M.Peshkovskiy, prof. N.M.Karinskiy, S.N.Abakumov, millatlar vakili V.I.Litkin (fin-ugor tillari bo‘yicha mutaxassis), Yumankulov (VTSK NIDA); tilshunos mutaxassislari prof. L.I.Jirkov, prof. M.F.Yakovlev, A.M.Suxotin; muhandis ixtirochi Yezdakov; ilmiy boshqarma ilmiy kotibidan iborat bo‘lgan. Komissiyaning birinchi yig‘ilishi 1929-yil 29-noyabrda o‘tkazilgan [Культура и письменность Востока 1930, 208].

Komissiyaning yakunlovchi yig‘ilishi 1930-yil 1-yanvar kuni bo‘lib, unda rus alifbosini lotinlashtirish yuzasidan bajarilgan ishlar hisoboti eshutilgan va qaror qabul qilingan. Komissiya quyidagi alifbo loyihalarini ishlab chiqqan [Материалы 1930, 216-219].

Подкомиссия по латинизации при Главнауке Наркомпроса.

Первый примерный проект международного латинского алфавита в применении к русскому письму.

(Устраняющий диакритические знаки, отдельные от букв)

A a	А а	I i	И и	R r	Р р	Ş ş	Ш ш
B b	Б б	J j	Й й	S s	С с	Y y	ы
V v	В в	K k	К к	T t	Т т	í	ь
G g	Г г	L l	Л л	U u	У у	ú	ю
D d	Д д	M m	М м	F f	Ф ф	á	я
E e	Э э	N n	Н н	X x	Х х	ó	ë
Z z	Ж ж	O o	О о	Ç ç	Ц ц		
Z z	З з	P p	П п	C c	Ч ч		

**Подкомиссия по латинизации при Главнауке Наркомпроса.
Второй примерный проект международного латинского
алфавита в применении к русскому письму. (Стремящийся к
максимальному использованию наличных в типографиях
латинских знаков)**

A a	А а	I i	И и	R r	Р р	Ş ş	Ш ш
B b	Б б	J j	Й й	S s	С с	Y y	ы
V v	В в	K k	К к	T t	Т т	j	ь
G g	Г г	L l	Л л	U u	У у	ü	ю
D d	Д д	M m	М м	F f	Ф ф	ä	я
E e	Э э	N n	Н н	X x	Х х	ö	ё
Z z	Ж ж	O o	О о	Ç ç	Ц ц		
Z z	З з	P p	П п	C c	Ч ч		

**Подкомиссия по латинизации при Главнауке Наркомпроса.
Третий примерный проект международного латинского
алфавита в применении к русскому письму.
(На основе Новую Тюркскую Алфавита).**

A a	А а	I i	И и	R r	Р р	Ş ş	Ш ш
B b	Б б	J j	Й й	S s	С с	Ь ь	ы
V v	В в	K k	К к	T t	Т т	j	ь
G g	Г г	L l	Л л	U u	У у	Y y	ю
D d	Д д	M m	М м	F f	Ф ф	Э э	я
E e	Э э	N n	Н н	X x	Х х	Ө ө	ё
Z z	Ж ж	O o	О о	Ç ç	Ц ц		
Z z	З з	P p	П п	C c	Ч ч		

Komissiya yig'ilishining bayonida rus alifbosining lotinlashtirilishi barcha SSSR xalqlarining yagona alifboga o'tishini, shuningdek, xalqaro miqyosdagi yagona alifbo ishlab chiqishning birinchi bosqichi ekanligi qayd etilgan: "Признать, что латинизацию русского алфавита следует понимать как переход русской письменности и печати на единый для всех народов СССР интернациональный алфавит на латинской основе, — первый этап к созданию всемирного интернационального алфавита" [Материалы 1930, 213].

Komissiya raisi bo'lgan N.Yakovlevning "Rus alifbosini lotinlashtirish uchun" ("За латинизацию русского алфавита") nomli maqolasida ham asosiy urg'u rus alifbosining lotinlashtirilishi SSSR xalqlarining alifbolarini unifikatsiya qilish asosida

yagona alifboga o'tishini, bu xalqaro miqyosidagi yagona alifbo yaratilishiga asos bo'lishini aytib o'tgan: "переход русской письменности на международный латинский алфавит немедленно же поведет к полной унификации и переходу на единый алфавит всех письменных национальностей Союза числом более 60. Таким образом, вопрос о латинизации русского алфавита неизбежно связан с проблемой создания единого интернационального алфавита для всех народов СССР. Первая задача не может быть решена без второй в условиях строительства социализма. Создание интернационального алфавита в масштабе СССР явится первым этапом к созданию всемирного интернационального алфавита" [Яковлев Н. 1930. 38]. "Переход русских на единый международный алфавит на латинской основе явится началом перехода всех народов СССР на тот же алфавит. В графике это послужит внешним выражением внутреннего единства пролетарской культуры в СССР при всем разнообразии ее национальных форм" [Яковлев 1930, 40].

N.Yakovlevning rus alifbosini lotinlashtirish komissiyasi uchun ishlab chiqqan tezislarida ham shu mazmundagi fikrlar bayon qilingan [Тезисы, 1930].

Shu vaqtda rus alifbosini lotinlashtirish bo'yicha tuzilgan loyihalar mutaxassislar tomonidan muhokama qilinmagani holda milliy tillar alifbolarini unga moslashtirish haqida fikrlar bildirilgan. Masalan, Cho'ponzoda o'zining "Birlashgan alifbeni yaxshilash masalasi" nomli maqolasida asosan turli alifbolardagi harflar sonini qisqartirish haqida fikr bildirgan. Olim Ozarbayjon alifbosidagi **y - u, c - ç, k - q, g - ɟ** harflari I plenum qarorlariga mos tushmasligi, Sibir-Oltoy xalqlari tomonidan taqdim etilgan alifbolar loyihalarida **k - q, g - ɟ** harflari o'rniga **k - g** harflarini ya'ni, **k - q** harflari o'rniga **k, g - ɟ** harflari o'rniga **g** olish zarurligini bildirgan [Чўбанзада. 1930: 3]. **k - q, g - ɟ** harflari esa turkiy tillarda alohida-alohida tovushlarni ifodalagan. Mazkur maqolada boshqa alifbolarni "ittifoqimiz uchun umum bo'lg'an lotin alifbesi bilan muvofiqlashtirish" tavsiya qilinadi: "RSFSR Maorif Komissarligi tomonidan matbuotda ko'tarilgan problema - rus yozuvini lotinlashtirish muammosi, umumiy ittifoq lotin alifbesini tug'dirish uchun keng imkoniyat va istiqbollarni ochadi. Bu vaqtda har xil alifbelarni ittifoqimiz uchun umumiy bo'lg'an lotin alifbesi bilan muvofiqlashg'a to'g'ri keladi [Чўбанзада 1930, 4].

Qamchinbek ham shunga yaqin fikrni bildirgan: "Yangi

alifbening muvaffaqiyatlari shuncha buyuk bo'ldikim, arabchilarning qizg'onch dalillariga qaramasdan, kunba-kun o'ziga keng maydon olib kelmakda va hozirda esa butun sho'rolar ittifoqida birlashgan baynalmilal bir yozmani vujudga chiqararliq baza tug'dirmoqdadir.

Hozirda rus matbuotining sahifalarida rus yozmasini ham lotin usulig'a ko'ruvning zarurligi to'g'risida maqolalar ko'rinmakdadir; RSFSR Narkomprosi Bosh Ilmiy Boshqarmasi (Glavnauka) komissiyasi tomonidan taqdim qiling'an uch loyihaning biri bizning tomondan qabul bo'lg'an umumiy alifbe asosida tuzilgandir.

... Yangi alifbeni vujudga keltirganda va amalga qo'yg'anda, biz alifbeni baynalmilallashdiruv maqsadini olg'a qo'ydiq, biz har xil qabilalarning yoxud millatlarning alifbesining vujudga chiqaruvni maqsad qilg'an emasmiz, albatta unifikatsiya masalasini bitirgan emasmiz" [Qamchinbek 1930, 7-8].

Sobiq ittifoq hududidagi xalqlar, jumladan, turkiy xalqlar alifbolarini isloh qilish, o'zgartirish bo'yicha olib borilgan ishlar milliy alifbolarni bocqichma-bosqich rus yozuviga yaqinlashtirishga harakat qilinganini ko'rish mumkin. Ana shunday bosqichlardan biri turkiy tillar lotin alifbosidan rus yozuviga o'tish davrida milliy alifbolarga **ё, ц, щ, ы, ю, я, ь, ъ** harflarining kiritilishi bo'lgan.

1940-yilda qabul qilingan ozarbayjon tili kirill alifbosiga **ц, э, ю, я** harflari [Исмаилова 1972, 35-40]; 1940-yilda qabul qilingan boshqird tili kirill alifbosiga **ё, ц, щ, ы, э, ю, я** [Биишев А.Г. 1972: 54-58]; 1957-yilda qabul qilingan gagauz tili kirill alifbosiga **ё, ь, ъ, щ, ю, я** [Туфан Б.П. 1972: 62-66]; 1940-yilgi qozoq tili kirill alifbosiga **ц, щ, ь, ь, э, ю, я**, 1957-yildan keyin **ё** [Кенисбаев, Мусабоев, Неталиева 1972, 72-74]; 1940-yilgi qoraqalpoq kirill alifbosiga **ь, э, ю, я**, 1957-yildan keyin **ё** [Насыров 1972, 82-87]; 1936-yilgi qorachoy-bolqor kirill alifbosiga **щ, ь, ы, ь, э, ю, я** 1957-yildan keyin **ё** [Соттаев 1972, 89-92]; 1940-yilgi qirg'iz kirill alifbosiga **ё, ц, ь, э, ю, я** [Кудайбергенов 1972, 94-98]; 1938-yilgi qirim kiril alifbosiga **е, ё, ц, щ, ь, э, ю, я** [Гафаров 1972, 103-107]; 1938-yilgi qumiq kiril alifbosiga **ё, щ, ь, ь, э, ю, я** [Бамматов 1972, 113-117]; 1939-yilgi tatar kirill alifbosida **q** va **k** harflari **к** bilan, **q** va **g** harflari **г** bilan ifodalanadigan bo'ldi, **ц, щ, ь, ь, э, ю, я** belgilari joriy qilindi [Курбатов 1972, 129]. 1943-yilgi tuva tili kirill alifbosiga **ё, щ, ь, ю, я** [Монгуш 1972, 147-148]; 1943-yilgi turkman tili kirill alifbosiga **е, ё, щ, ь, ь, ю, я** [Чарыяров 1972, 152-156]; 1940-yilgi o'zbek tili kirill alifbosiga **ё, ц, ь, ь, э, ю, я** [Ибрагимов 1972, 163-173]; 1947-yilgi sovet uyg'urlari tili kirill alifbosiga **ё, щ, ы, э, ю, я** [Саидвакасов 1972,

181-182]; oltoy tili kirill alifbosiga **В, Ф, Х, Ц, Щ, Ю, Ё, Я, Ъ, Ы** harflari kiritildi [Тыбыкова 1972, 43].

Shu ma'noda, tatar alifbosi taraqqiyot bosqichlarini o'rgangan taniqli olim A.Karimullinning "tatar tilining yozuvi uchun tiqishtirilgan kirillitsa tatar tilida o'qish-yozishga qaraganda rus tilida o'qish-yozishga o'rgatish uchun tuzilgani ham ongli ravishda tatar tilidan bezdirishga, ruslashtirishga yo'l ochishni faollashtirishga asoslangan", deb yozgani asosli edi [Кәримуллин 1997, 71].

Milliy tillar, ularning alifbosi, imlosiga bo'lgan bunday munosabat cobiq ittifoqdagi boshqa til oilalariga nisbatan ham qo'llangan. Bu jarayyon milliy tillarni, ularning alifbosini ruslashtirishga qaratilgan tadbir ekanligi ayrim ishlarda bayon etilgan. 1932-yilda A.G. Matsiyevning "Тушко-чеченский-русский словарь" nomli lug'ati Chechenistonda chop etiladi. Lug'atga so'zboshi yozgan Checheniston ilmiy-tadqiqot instituti direktori M.Mamakayev Yakovlevning alifbolarni unifikatsiya qilish bilan bo'liq qarashlarida chorizm davri missionerlari faoliyati takrorlanayotgani, ruslashtirishga qaratilgan yozuv tavsiya etilayotgani tanqid qilingan. U yozadi: "Под лозунгом унификации горских алфавитов проф. Яковлев предлагает нам руссификацию алфавита на самой худшей его основе, повторяет зады царских колонизаторов – миссионеров". "Предложенный проф. Яковлевым алфавит ведет нас к абсолютному уничтожению латинской основы графических знаков... "и таким образом" ведет нас к реставрации руссификаторского алфавита" [Сердюченко 1933, 216].

"Алфавит проф. Яковлева политически вреден... В таком виде, в каком он представлен проф. Яковлевым, лишен перспективы, с явно-руссификаторскими тенденциями, коими лишается его интернациональная основа" [Сердюченко 1933, 217].

M.Mamakayev Yakovlev tomonidan taqdim etilgan alifbolar unifikatsiyasi nafaqat xalqaro miqyosda, balki birgina sharq xalqlari doirasida ham emasligini, ilmiy asosi yo'qligini bildirgan: "Унифицированный алфавит, предложенный проф. Яковлевым, не достигает, во-первых, цели унификации на латинской основе не только в масштабе перспективном (международном), но даже в масштабе одного Востока, как единая унифицированная основа будущей социалистической письменности; во-вторых, цели технического упрощения письма: вместо надстрочных знаков предложены "хвостики" и надстрочные

знаки... и в-третьих совершенно не достигает цели научного обоснования языка в его графическом изображении, т. е. в алфавите" [Сердюченко 1933, 216].

M.Mamakayev Yakovlev faoliyatini tanqid qilish bilan birga, SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi huzuridagi "Yangi turk alifbosi Butunittifoq Markaziy qo'mitasi"ning butun faoliyati milliy alifbolarni ruslashtirishga qaratilganini alohida urg'ulab o'tgan.

Xulosa

1. Turkiy xalqlar alifbolarini rus yozuvi asosida o'zgartirish chorizm hokimiyati davrida paydo bo'lib, hukmron mafkuraga aylangan bo'lib, uni amalga oshirish uchun izchillik bilan ish olib borilgan. Tatar va qozoq tillari yozuvini rus alifbosiga o'tkazish yuzasidan qilingan harakatlar natijasiz tugagandan so'ng, asosiy e'tibor yozuvi bo'lmagan oltoy, yoqut, chuvash, cherkes, kabardin, abxaz, qorachoy-bolqor, shor, xakas singari kam sonli xalqlarga rus alifbosi joriy qilingan.

2. XX asr boshlarida turkiy tillar uchun mushtarak til yaratish, arab alifbosiga asoslangan yozuvlarni isloh qilish haqida bo'layotgan qizg'in munozaralardan keyin rus olimlari 20-yillardan boshlab rus yozuvining afzalliklari, imkoniyatlarini targ'ib qiluvchi maqolalar e'lon qila boshlagan. 1924-yildan sharqshunoslik bilan shug'ullanadigan tashkilotlarga sobiq ittifoqdagi Sharq xalqlari yozuvlarini tubdan o'zgartirish to'g'risida ko'rsatma berilgan.

3. Mahalliy xalqlar alifbolarini rus yozuviga o'tkazish bilan bog'liq targ'ibot ishlari keskin qarshilikka uchraganidan keyin ozarbayjonli ziyolilar tomonidan ilgari surilayotgan lotin yozuviga o'tish xususidagi harakatlar vaqtinchalik qo'llab-quvvatlangan. Bu jarayonda qardosh xalqlar tili, alifbosi, imlosini bir-biridan ajratishga qaratilgan harakatlar tizimli ravishda olib borilgan.

4. Radlov to'garagining maxsus komissiyasi turkiy xalqlar tillari uchun o'nta unli, 27 ta undosh tovushlarni ifodalaydigan harf va tutuq belgisidan iborat lotin alifbosi loyihasini ishlab chiqqan. Komissiya turkiy xalqlar vakillari ishlab chiqqan to'rtta loyihani tahlil qilib, alifbolardagi harflar sonini qisqartirish haqida tavsiya bergan. Turkiy tillardagi singarmonizmning o'zgarayotganligini qayd etgan.

5. I.Stalin 1925-yildan milliy tillar, millatlarning kelgusida birlashib ketishi, yagona millat va tilning shakllanishi, natijada xalqaro tilning yaratilishi haqida fikr bildira boshlagan.

6. 1926-yili Boku shahrida bo'lib o'tgan Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyida turkiy tillarni fonetik jihatdan birlashtirib

turuvchu singarmonizm hodisasi qizg'in muhokama qilingan. Olimjon Ibrohimov, Shokirjon Rahimiy, Alparov, Usmonovlir barcha turkiy tillarda singarmonizm mavjudligini bayon qilishgan. B.Cho'ponzoda turkiy tillardagi so'zlar arab va fors tilidan o'zlashgan so'zlar hisobiga o'zgargani, shuning uchun turkiy tillar to'liq singarmonizm va agglyutinatsiya qoidalariga amal qilmasligini isbotlashga harakat qilgan.

7. 1927-yili Boku shahrida bo'lib o'tgan Butunittifoq yangi alifbo markaziy qo'mitasining I plenumida ham turkiy tillardagi singarmonizm qonuniyati bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Cho'ponzoda turkiy tilli olimlar o'rtasida ziddiyatli fikrlar bildirilgan.

8. B.Cho'ponzoda va rus turkologlari tomonidan turkiy adabiy tillardan singarmonizmni chiqarishga qat'iy harakat qilingan. Singarmonizm turkiy tillarning umumiy qonuniyati emas, degan fikrni o'tkazmoqchi bo'lgan. Bu fikr mahalliy olimlar tomonidan asossiz deb topilgan.

9. Turkiy tillarning lotin alifbosi va lotin alifbosi asosida tuzilgan imlo qoidalari singarmonizm hodisasi asosida shakllantirilgan.

10. 1927-yildan turkiy alifbolarni unifikatsiya qilish niqobi ostida alifbolardagi harflar sonini kamaytirish, vaziyatga qarab bosqichma-bosqich rus alifbosiga yaqinlashtirish, moslashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirib borilgan.

11. Rus alifbosini lotin yozuviga o'tkazish bo'yicha 3 ta alifbo loyihasi ishlab chiqilgan. Milliy alifbolarni ushbu loyihalarga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Bu sobiq ittifoqda yagona alifboni yaratish va shu asosda yagona tilni shakllantirish maqsadidagi tadbir edi.

12. 1934-yili o'zbek alifbosidagi 9 ta unli tovushni ifodalaydigan harflardan 3 tasi, o'zbek tili imlo qoidalaridan singarmonizm siyosiy va mafkuraviy bosim asosida chiqarilgan va bu o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati, katta yutug'i sifatida baholanib kelingan.

13. O'zbek adabiy tilidagi unli tovushlarni ifodalaydigan harflar sonining qisqartirilgani, singarmonizm hodisasining siyosiy va mafkuraviy bosim asosida chiqarilganini hisobga olib, ushbu masalalarni qayta ko'rib chiqish va tegishli xulosalar chiqarib amaliyotga tatbiq etish lozim.

Adabiyotlar

- Arnold J. Toynbe. 1929. The Adoption of the Latin in Turkey and in the Turkish States members of the U.S.S.R. (1918-28). *Surey of international Affairs*. 1928. London.
- Bayramov, R. 2013. *Bakir Çobanzadə və əlifba məsələsi. "Bakir Çobanzadə və*

- Türkologiyanın müasir problemaları” mövzusunda Respublika elmi konfransının materialları.* 31 may 2013-cü il. Bakı. 64-70.
- Bəkir Çobanzadə – 125. 2018. «Azərbaycan dili: dünən və bu gün» mövzusunda Beynəlxalq elmi konfransın materialları.
- Birinci Turkoloji Qurultayın 90 illik yubileyinə həsr olunmuş.* 2016. *Müasir türkologiya: dünən, bu gün və sabah (problemlər və perspektivlər).* Respublika elmi konfransının materialları. 28 dekabr 2016-cı il “Elm və təhsil” Bakı.
- Bocon, E.E. 1966. *Central Asians Under Russian Rule.* New York, 1966.
- Castagne, J. 1926. Le Congrès de Turkologie de Bokou, en Mars 1926. *Revue devonde Musulman, LXIII, ler trimester.* 1926. Paris.
- Castagne, J. 1927. *Latinisation de l'Alphabet Turk dans les Republiques Turko-Tatares de i' U.R.S.S.* *Revue des Etudes Islamiques.* 1927. Cahier III, Paris.
- Əzizov, E. 2018. *Bəkir Çobanzadənin elmi yaradıcılığında ahəng qanunu məsələsi və saitlər ahənginə dair bəzi mülahizələr haqqında.* *Bəkir Çobanzadə – 125.* «Azərbaycan dili: dünən və bu gün» mövzusunda Beynəlxalq elmi konfransın materialları. Bakı. 19-22.
- Henze, Paul, 1957. B. Alphabet Changes in Soviet Central Asian and Communist China. *Royal Central Asian Journal.* XLIV. S. 124-136.
- Henze, Paul. 1956. Politics and Alphabets in inner Asia. *Royal Central Asian Journal.* XLIII. S. 29-51.
- Hudayberdiyev, J. 2022. Özbək edebî dilində ses uyumunun yok edilişi. *O'zbekiston: til va madaniyat.* 4(1)-son, 38-50-betlar.
- Hudoyberdiyev, C. 1998. Özbeçədə ses uyumunun yok edilişi. *Türk dünyası dil ve edebiyat dergisi.* Ankara. 5. 433-443.
- Kenan, A. 2001. *Kırımlı Bekir Sıdkı Çobanzade (dilciligi ve Edebiyat Araştırmacılığı)* Ankara. Türk Dil Kurumu Yayınları: 791.
- Kısakürek, N.F. 1992. *Moskof.* Ankara. Büyük doğu.
- Məmmədov, E. 2018. Bəkir Çobanzadə və ümumtürk əlifbasi məsələsi. *Bəkir Çobanzadə – 125.* «Azərbaycan dili: dünən və bu gün» mövzusunda Beynəlxalq elmi konfransın materialları. Bakı. 5-7.
- Müasir türkologiya: dünən, bu gün və sabah (problemlər və perspektivlər)* 2016. *Respublika elmi konfransının materialları* 28 dekabr 2016-cı il. Bakı: “Elm və təhsil”. 486 b
- Şimşir, B. 1991. *Azərbaycan'da Türk Alfabesi tarixçe.* Ankara. Musabay V. 1959. *Idil-Ural Türkleri dil ve yazılarının Sovvetleştirilmesi ve Ruslaştırılması.* Dergi, № 15.
- Şimşir, B. 1992. *Türk Yazı Devrimi.* Ankara.
- Til-imlo. 1932. *Til-imlo konferensiyasi materialları. 1929 nchi yil mayning 15-23 nchi kunlarida Samarqandda butun O'zbekiston miqyosida to'plang'an o'zbek til-imlochilari va adbiblar konferensiyasining to'la hisobi,* Tashkent.
- Xakof, W. 1993. *Telen belgan il acar. Latin grafikasında uqu ham jazu kunekmələre. Tatarstan xalq məğərifə ministrlyğы tarafınnan xuplandь.* Qazan: Məğərif, 62 b.

- Xudoyberdiyev, J. 2022. "O'zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi". *O'zbekiston: til va madaniyat*. № 4. 38-63.
- Xudoyberdiyev, J. 2023. Qatag'on qilingan tovushlar qismati, "*Ma rifat*" gazetasi, 1-mart, № 9(9438).
- Алавердов, К. 1933. План работы научного совета. *Революция и письменность*. № 1-2(11-12). Москва. 1932. 99-109.
- Алфавит октября*. 1934. Москва-Ленинград.
- Ардаширов, Ж. 1992. Телебез яшасен дисэк... Шәһри Казан, 20 ноябрь.
- Багданова, М. 1930. Лотин асосида тузилган ўзбек лойиҳаларининг тарихига бир қараш. "*Аланга*", № 2. Тошкент.
- Бамматов, З. 1972. К вопросу о письменности кумыкского языка *Вопросы совершенствования алфавитов тюркских языков СССР*. Москва, стр. 108-117.
- Биишев, А. 1972. О башкирском алфавите. В кн.: *Вопросы совершенствования алфавитов тюркских языков СССР*. 49-58. Москва.
- В.С. 1926. Первый Всесоюзный тюркологический съезд. *Новый Восток*. 12, 334-341. Москва.
- Вопросы совершенствования алфавитов тюркских языков СССР*. 1972. Москва.
- Гранде, Б. 1932. Еще об унификации алфавитов. *Революция и письменность*. 4-5(14-15). Москва. 160-169.
- Гранде, Б. 1933. О сокращении некоторых букв в ряде тюркских алфавитов. *Письменность и революция*. Сборник I. Москва-Ленинград. 137-141.
- Дмитриев, И. (Кельд). 1932. Реформа или революция в строительстве алфавитов СССР. *Революция и письменность*. 1-2(11-12). Москва. 89-91.
- Донидзе, И. 1972. Шорский алфавит. В кн.: *Вопросы совершенствования алфавитов тюркских языков СССР*. Москва, стр. 20-207.
